

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY nomidagi
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

SAMDU QOSHIDAGI 2-SON AKADEMIK LITSEYI

R. SH. XOLIQULOV, A.J. BODIROV, J.E. DJURAYEV

TARIXDAN

**yangi darsliklar asosida
mavzulashtirilgan testlar to‘plami**

[JAHON VA O‘ZBEKISTON TARIXINING XVI ASR BOSHLARIDAN
XX ASR BOSHLARIGACHA BO‘LGAN DAVRI]

[O‘RTA MAKTAB VA AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARI,
ABITURIYENTLAR UCHUN USLUBIY QO‘LLANMA]

SAMARQAND – 2015

Tarixdan yangi darsliklar asosida mavzulashtirilgan testlar to‘plami (O‘rta maktab va akademik litsey o‘quvchilari, abituriyentlar uchun uslubiy qo‘llanma)- Samarqand, 2015. 148 bet.

TUZUVCHILAR:

R.SH.Xoliqulov – SamDU”O‘zbekiston tarixi” kafedrasining mudiri, t.f.n, dotsent

A.J. Bodirov – SamDU qoshidagi 2-son Akademik litseyining tarix fani yetakchi o‘qituvchisi

J.E .Djurayev – SamDU qoshidagi 2-son Akademik litseyining tarix fani katta o‘qituvchisi

MA’SUL MUHARRIR:

SH.S.G‘offorov – SamDU O‘zbekiston tarixi kafedrasining professori, tarix fanlari doktori

TAQRIZCHILAR:

M.I. Nasrullayev – SamDU “O‘zbekiston tarixi” kafedrasining dotsenti, t.f.n

U. Ortiqov – SamDU qoshidagi 2-son Akademik litseyining tarix fani yetakchi o‘qituvchisi

B. Ismoilov – SamDU qoshidagi 2-son Akademik litseyining tarix fani katta o‘qituvchisi

Samarqand Davlat Universitetining o‘quv-uslubiy kengashining 2015-yil 31-martdagi 7-raqamli yig‘ilishi qarori bilan uslubiy qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

SO`Z BOSHI

O`rta maktablarda, akademik litseylarda tarix fanini o`qitish samaradorligini oshirish test usulidan foydalanib dars o`tish ijobiy natijalar bermoqda. Test usulidan foydalanish o`quvchilar bilimni nazorat qilib borishda va iqtidorli yoshlarni oliy o`quv yurtlariga tanlab olishda muhim rol o`ynaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi hamda rahnomaligida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" zamonaviy, uzluksiz ta'lim tizimini vujudga keltirish hamda ta'limni tubdan isloh qilish bunga asos bo'ldi.

Yoshlarda teran tarixiy tafakurni shakllantirish ularni ma'naviy dunyosuni boyitishda Jahon va O'zbekiston tarixining roli ham beqiyosdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Jahon va O'zbekiston tarixini bilish gumanitar yo'nalishdagi oliy o`quv yurtlariga kirishning asosiy shartlaridan biridir.

Huquqshunoslik, tarix, falsafa, sotsiologiya, o'zbek tili va adabiyoti, xorijiy tillar va boshqa gumanitar mutaxassislik bo'yicha oliy ma'limot olishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan o'quvchi yoshlar Jahon va O'zbekiston tarixini chuqur o'zlashtirib olishlari zarur. Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda mazkur test to'plami sizlarga yaqindan yordam beradi degan umiddamiz. Ushbu testlar to'plamida Jahon va O'zbekiston tarixining XVI asr boshlaridan XX asr boshlarigacha bo'lgan davriga taalluqli testlar jamlangan.

O'quvchi ushbu to'plamdagi testlarni yechar ekan, XVI asr boshlaridan XX asr boshlarigacha Vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'anaviy-madaniy hayoti tarixi bilan tanishadi. Testlarni yechar ekan xalqimiz hayotida chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'lganligi, davlat qurilishi, hamda xonliklar o'rtasidagi ziddiyatlarga doir testlarni o'rganib oladi. XIX asr oxiridagi o'lkamizda bo'lib o'tgan milliy ozodlik xarakatlari, birinchi jahon urushi davridagi umumiy tus olgan milliy ozodlik xarakatlari bilan tanishadi.

I BO'LIM: XVI ASRDAN XIX ASRNING O'RTALARIGACHA VATANIMIZNING
IJTIMOIY-SIOSIY, IQTISODIY VA MANAVIY-MADANIY HAYOTI TARIXI

1-mavzu: Movarounnahr shayboniylar
hukmronligi davrida

1. Xuroson hukmdori Shohrux qachon vafot etgan?

- A) 1506-yilda B) 1447-yilda
C) 1469-yilda D) 1441-yilda

2. Sulton Husayn.....

- A) Amir Temurning birinchi o'g'li Jahongirning nabirasi
B) Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi
C) Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshohning nabirasi.
D) Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruxning nabirasi

3. Quyidagi hukmdorlardan qaysilari 40 yildan kam bo'lmagan muddatda hukmronlik qilishgan?

1. Sulton Husayn Boyqaro, 2. Sulton Ahmad
3. Amir Temur, 4. Angliya qirolichasi Yelizaveta I.
5. Afg'on hukmdori Do'st Muhammadxon
A) 1,4 B) 4,5 C) 1 D) 3,4,5

4. Umarshayx Mirzo otasi Abu Said hukmronligi davrida, dastlab, qaysi viloyat hokimi bo'lgan?

- A) Sayram B) Qobul
C) Toshkent D) Farg'ona

5. Movarounnahr hukmdori Abu Said

- A) Jahongirning nabirasi edi
B) Umarshayxning nabirasi edi
C) Mironshohning nabirasi edi
D) Shohruxning nabirasi edi

6. Xuroson hukmdori Sulton Husayn vafotidan so'ng, mamlakatda qanday vaziyat yuzaga keldi?

- A) Mamlakat uchga bo'linib ketdi
B) Qo'sh hokimiyatchilik yuzaga keldi
C) Bobur Mirzo taxtni egalladi
D) Safaviylar hujumi boshlandi

7. Boburning otasi Umarshayx Mirzoning yashagan yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1450-1491-yillar B) 1456-1491-yillar
B) 1460-1495-yillar D) 1455-1494-yillar

8. Shayboniyxon qachon Farg'onani egalladi?

- A) 1499-yilda B) 1501-yilda
C) 1500-yilda D) 1504-yilda

9. Shayboniyxon Farg'onani egallagandan so'ng, kimga Axsi va Andijonni tortiq qildi

- A) Jonibek Sultonga B) Mahmud Sultonga
C) Suyunchxo'ja Sultonga D) Abulxayrxonga

10. Shayboniyxon nechanchi yilda Samarqandni uzil-kesil egalladi?

- A) 1501- yilda B) 1497- yilda
C) 1494 - yilda D) 1500 - yilda

11. Shayboniyxon Samarqand taxtni egallaganda, hokimyatni kim boshqarayotgan edi?

- A) Sulton Ahmad B) Sulton Mahmud
C) Sulton Ali Mirzo D) Abu Said Mirzo

12. Boburning Samarqand sari harbiy yurushlarni amalga oshirgan sanalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1496-yil, 1497-yil 1500-yil, 1511-yil
B) 1497-yil, 1498-yil, 1501-yil, 1512-yil
C) 1444-yil, 1496-yil, 1500-yil, 1511-yil
D) 1496-yil, 1499-yil, 1502-yil, 1511-yil

13. Bobur Mirzo nechanchi yillarda Samarqand taxtni egalladi?

- A) 1500-1512 - yillarda
B) 1497,-1500,-1511-yillarda
C) 1496,-1501,-1512-yillarda
D) 1496,-1497,-1500,-1511-yillarda

14. Bobur Mirzoning Samarqandga birinchi harbiy yurushi vaqtida Buxoroni qaysi hukmdor boshqarayotgan edi ?

- A) Sulton Ali B) Bo'sung'ur Mirzo
C) Sulton Ma'sud D) Sulton Mahmud

15. Bobur Samarqandga 1497-yildagi yurishi vaqtida shaharni qancha vaqt qamal qildi?

- A) 7 oy B) 5 oy C) 6 oy D) 3 oy

16. Nechanchi yilda Bobur qish yaqinlashib qolganligi tufayli Samarqand qamalini to'xta- tib, yurtiga qaytishga majbur bo'ldi?

- A) 1496- yilda B) 1497- yilda
C) 1500 - yilda D) 1511 -yilda

17. Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi marta qamal qilgan vaqtda nima uchun Boysung'ur Mirzo shahar mudofasini uyushtira olmadi?

- A) Askarlarga qurol-yarog' yetish may qolganligi tufayli
- B) Askarlarning oylik-maoshi kam bo'lganligi tufayli
- C) Shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi tufayli
- D) Shayboniyxondan yordam olgani uchun

18. Bobur 1497-yilda Samarqandni qamal qilgan vaqtda tang ahvolda qolgan Boysung'ur Mirzo qayerga qochdi?

- A) Buxoroga
- B) Qunduzga
- C) Dashti Qipchoqqa
- D) Hindistonga

19. Bobur Mirzoning Samarqandga uchinchi marta yurushi vaqtida shahar hukmdori kim edi?

- A) Boysung'ur
- B) Shayboniyxon
- C) Sulton Ali
- D) Sulton Ahmad

20. Abulxayrxon dastlab temuriylarga rasman qaram bo'lgan hujum qilgan.

- A) Termizga
- B) Hirotga
- C) Xorazmga
- D) Toshkentga

21. Boburning Samarqanddagi 100 kunlik hukmronligidan so'ng shaharda hokimiyat kimning qo'lida o'tdi?

- A) Ahmad Sulton
- B) Sulton Ali
- C) Boysung'ur
- D) Shayboniyxon

22. "Dashti Qipchoq" deb ataluvchi geografik hudud XI asrdan boshlab.....

- A) arab va turkiy manbalarda tilga olinadi
- B) fors va turkiy manbalarda tilga olinadi
- C) slavyan va vizantiya manbalarida tilga olinadi
- D) arab va fors manbalarida tilga olinadi

23. Qaysi daryo Dashti Qipchoqni Sharqiy va G'arbiy qismlarga ajratib turgan?

- A) Volga
- B) Don
- C) Ural
- D) Xuanxe

24. "O'zbek Ulusi" deb ataluvchi davlat nechanchi yilgacha yashadi?

- A) 1412 -yilgacha
- B) 1556 -yilgacha
- C) 1468 -yilgacha
- D) 1602 -yilgacha

25. "O'zbek Ulusi" deb ataluvchi davlatning poytaxtlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Arquq, Sig'noq
- B) Tura, Sig'noq
- C) Samarqand
- D) Ostona, Tura

26. "O'zbek Ulusi" davlati necha yil yashadi?

- A) 30 yil
- B) 40 yil
- C) 60 yil
- D) 50 yil

27. Quyidagi voqealardan qaysilari bir vaqtda sodir bo'lgan?

- A) Shayboniyxonning dunyoga kelishi; Abu Said Samarqandda taxtni egalladi
- B) Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimini egalladi; Ivan Grozni hokimiyat tepasiga keldi
- C) Abulxayrxon Xorazmni egalladi; Yuz yillik urush tugadi
- D) Temuriylar davlati quladi; Fransiyada general shtatlar chaqirildi

28. Shayboniyxonga homiylik qilgan Muhammad Mazid Tarxon qaysi viloyat hukmdori bo'lgan?

- A) Shohruxiya va O'zgan
- B) Turkiston va O'tror
- C) Toshkent va Eloq
- D) Xorazm va Buxoro

29. Shayboniyxon ota-onasidan yoshligida yetim qolganda, kimni qo'lida tarbiyalanadi?

- A) Darvish Muhammadni
- B) Muhammad Mazidni
- C) Boyshayxni
- D) Sulton Alini

30. Robiya Sultonbegim qaysi temuriy hukmdorning qizi edi?

- A) Bobur Mirzoning
- B) Ulug'bek Mirzoning
- C) Abu Saidning
- D) Umar Shayxningning

31. Shayboniyxon 1499-yili, Samarqandga yurush qilgan vaqtda Samarqand hukmdori kim edi?

- A) Boysung'ur
- B) Sulton Ali
- C) Sulton Mahmud
- D) Bobur

32. Muhammad Shayboniyxon Xorazmni qachon bosib oldi?

- A) 1505-yilda
- B) 1508-yilda
- C) 1510-yilda
- D) 1512-yilda

33. Shayboniyxon Samarqandni uzil-kesil egallagan yilni aniqlang?

- A) 1500-yilda
- B) 1501-yilda

C) 1499 -yilda D) 1505 -yilda

34. Shayboniyxon harbiy yurishlari natijasida qo'lga kiritilgan hududlari sanasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Toshkent va Shohruxiya 2. Farg'ona

3. Xorazm, 4. Xuroson

a) 1505-yil b) 1505-yil kuzida c) 1503-yil

d) 1504-yil

A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b B) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

35. Bobur 1500-yilda Samarqandni qo'lga kiritgan vaqtda, Shayboniyxon.....

A) bu paytda Samarqand tashqarisida edi

B) uni yengishga ko'zi yetmasdi

C) qo'shiniga o'lat kasali tekkandi

D) hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshladi

36. 1501-yil Zarafshon bo'yidagi jangda mag'lub bo'lgandan so'ng, Bobur qayerga chekindi?

A) Hisorga B) Samarqandga

C) Buxoroga D) Xo'jandga

37. Bobur Mirzo nechanchi yilda Kobulda hokimiyatni qo'lga kiritdi?

A) 1503 -yil B) 1506 -yil

C) 1504 -yil D) 1508- yil

38. Shayboniyxonning vafot etgan yil sanasini ko'rsating.

A) 1506-yil B) 1508-yil

C) 1510-yil D) 1511-yil

39. Bobur Mirzo nima sababdan 1501-yilda Samarqandni tark etdi?

A) Shayboniyxon bilan tuzilgan sulhga binoan

B) Samarqand aholisining noroziligi bois

C) Samarqandni tark etmadi

D) U Qobulni egallashni maqsad qilgan edi

40. Bobur Mirzo Qobulni nechanchi yilgacha boshqardi?

A) 1516-yilgacha B) 1526-yilgacha

C) 1530-yilgacha D) 1504-yilgacha

41. Bobur turkiy nazmda asarlar bitishda

A) Navoiydan keyinda turgan

B) Lutfiydan keyinda turgan

C) Jomiydan keyindan turgan

D) Mashrabdan keyinda turgan

42. "Boburnoma" asarida qaysi mamlakat xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar berilgan?

A) Afg'oniston, Movarounnahr, Eron va Xitoy

B) Movarounnahr, Hindiston va Turkiya

C) Movarounnahr, Hindiston, Eron va Afg'oniston

D) Xuroson, Movaraunnahr va Hindiston

43. Boburning..... asarida islom huquqshunosligi va islom dinining asoslari bayon etilgan.

A) "Boburnoma" B) "Mubayyin"

C) "Tarixi Rashidiy" D) "Turkiy devon"

44. Bobur Mirzoning yurtimizda nechanchi yilda 510 yilligi keng miqyosda nishonlandi?

A) 1992-yilda B) 1995-yilda

C) 1993-yilda D) 1999-yilda

45. Yurtimizdagi qaysi viloyatda Bobur Mirzoning haykali o'rnatilgan?

A) Samarqand B) Farg'ona

C) Buxoro D) Andijon

46. Boburning Boburnoma asaridagi voqealar bayoni nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?

A) 1493-1518-yillarni B) 1493-1529-yillarni

C) 1494-1530-yillarni D) 1504-1526-yillarni

47. Shayboniyxlardan kimning hukmronligi davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirilgan?

A) Abu Said B) Abdullaxon II

C) Ubaydullaxon D) Abdulatifxon

48. Abdullaxon II hukmronligi davrida 1574 – 1595 – yillarda qaysi hududlarni o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi.

1. Balx, 2. Samarqand, 3. Toshkent, 4. Farg'ona, 5. Miyonqol,

6. Badaxshon, 7. Xorazm, 8. Eron, 9. Qobul.

A) 1,2,3,7,9 B) 1,3,5,7,9.

C) 1,2,3,4,6,7 D) 2,3,4,6,8.

49. Shayboniy Ubaydullaxon nomi bilan bog'liq bo'lmagan javobni ko'rsating?

A) Ismoil Safaviy va qizilboshlarning hujumlarini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning tazyiqidan saqlab qoldi

B) Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini

Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta

tiklashga harakat qildi va bunga erishdi

- C) U Hirotni ishg'ol etgan Eron qo'shinini bir necha bor mag'lub etdi
D) Balx va Badaxshonni qayta egalladi
50. Abdullaxon II otasi Iskandar Sulton qaysi viloyat hukmdori bo'lgan?
A) Shohruxiya B) Samarqand
C) Miyonqol D) Balx
- 51.. Abdullaxon II ning davlati sarhadlari janubda Hirotdan...yetdi.
A) Issiqko'lgacha B) Mashhadgacha
C) Xo'tongacha D) Balxgacha
- 52..... kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.
A) XV asrning oxirlariga
B) XVI asrning boshlariga
C) XVI asrning oxirlariga
D) XVII asrning o'rtalariga
53. Abdullaxon II o'limidan so'ng davlatning zaiflashib qolganligidan foydalanib Abbas I qaysi hududlarni bosib oldi?
A) Nishopur, Axsi, Hirotdan, Buxoro
B) Hirotdan, Sabzavor, Marv, Choch
C) Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Hirotdan
D) Axsi, Andijon, Toshkent
54. Qozon xoni Tavakkal Movarounnahr qo'shin tortib qaysi hududlarni bosib oldi?
A) Axsi, Kobo, Shohruxiya, Samarqand
B) Samarqand, Qarshi, Buxoro
C) Axsi, Andijon, Toshkent, Samarqand
D) Buxoro, Xorazm, Termiz
55. Pirmuhammadxon tomonidan Tavakkal qo'shini qachon tor- mor keltirildi?
A) 1598-yil B) 1595-yil
C) 1599-yil D) 1601-yil
56. Shayboniylar sulolasi hukmronligi qancha vaqt davom etdi?
A) besh asr B) bir yarim asr
C) bir asr D) bir asir sakson yil
57. XVI asrning so'ngi choragida Shayboniylar davlatining poytaxti?
A) Buxoro B) Samarqand
C) Toshkent D) Xiva
58. XVI asrda Shayboniylarning poytaxti

- bo'lgan shaharlarni aniqlang?
A) Samarqand va Marv
B) Samarqand va Buxoro
C) Buxoro va Urganch
D) Toshkent va Marv
59. 1503-yilda Shayboniyxon Toshkent va Shohruxiyani egallagach ushbu shaharlarga Ko'chkinchi Sulton va Suyunch Xo'jani hokimlikga tayinlaydi, ushbu tarixiy shaxslarning kelib chiqishini aniqlang?
A) Ular Shayboniyxonning bobosi Abulxayrxon ning farzandlari edi
B) Ular Shayboniyxonning ukalari edi
C) Ular Mirzo Ulug'bekning jiyanalari edi
D) Ular Shayboniyxonga ona tomondan qarindosh edi
60. Shayboniyxon ukasi Mahmud Sultonga qaysi viloyatni beradi?
A) Samarqandni B) Buxoroni
C) Urganchni D) Marvni
61. Shayboniylardan qaysi hukmdorlar pul islohati o'tkazishgan?
A) Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Abdullaxon II
B) Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Ko'chkinchixon
C) Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Abdullaxon I
D) Abu Said, Ko'chkinchixon, Abdullaxon II
62. XVI asrning 30-yillarida Shayboniylardan bo'lgan eng ta'sirli xon kim edi?
A) Muhammad Temur B) Mahmud Sulton
C) Navro'z Ahmad D) Ubaydulloxon
63. Shayboniyxon iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida.....
A) pul islohoti o'tkazdi
B) Suyurg'ol tartibini joriy etdi
C) yer-suv islohoti o'tkazdi
D) harbiy islohat o'tkazdi
64. Shayboniyxonning qaysi islohoti dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi?
A) ijtimoiy islohoti
B) yer-suv islohoti
C) ta'lim sohasidagi islohoti
D) pul islohoti
65. Somonjuq dashtini obodonlashtirishga kanali xizmat qilgan.

- A) Xoja ka'ab B) Afshona
C) Tuyatortar D) Mehtar qosim

66. Shayboniylar davrida zakot va boshqa tushumlardan tushgan mablag'larni o'z o'rnida ishlatish bilan qaysi mansabdor shaxs shug'ullangan?

- A) Mehtar B) Parvonachi
C) Xon yasovuli D) Ko'kaldosh

67. Davlat muassasalari qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) xiroj B) ushr
C) ixrojt D) zakot

68. Shayboniylar davrida favqulotda soliqlar...

- A) urush vaqtlari yig'ilgan
B) davlat pulga muxtoj bo'lganida yig'ilgan
C) umuman yig'ilmagan
D) xon amaldorlari tomonidan yig'ilgan

69. Abdullaxon II bilan Akbarshoh o'rtasidagi munosabatlarda asosiy rol o'ynagan omilni ko'rsating?

- A) Xurosonni egallash
B) Markazlashgan davlat manfaatlari
C) Shayboniylar va Boburiylar o'rtasidagi sulolaviy va mulkiy nizolar
D) o'z davlati qudratini oshirish

70. Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon qaysi davlat bilan Eron Safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma tuzadi?

- A) Ozarbayjon bilan B) Hindiston bilan
C) Turkiya bilan D) Rossiya bilan

71. Abdullaxon II ning Akbarshoh huzuriga yuborgan elchilari sanalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan ?

- A) 1572-yilda, 1577-yilda, 1584-yilda
B) 1570-yilda, 1577-yilda, 1585-yilda
C) 1572-yilda, 1577-yilda, 1585-yilda
D) 1568-yilda, 1572-yilda, 1588-yilda

72. 1586-yilda Boburiy Akbarshoh Abdullaxon II ga ...

- A) Turkiyaga yordam qilish zarurligini ma'lum qildi
B) Eronga yordam qilish zarurligini ma'lum qildi
C) Xitoyga yordam qilish zarurligini ma'lum qildi

D) U bilan ittifoqchi bo'lmasligini ma'lum qildi

73. Manbalarda ta'kidlanishicha, Muhammad Shayboniyxon bilan Turkiya sultoni o'rtasida Eron safaviylariga qarshi kurashi to'g'risida shartnoma tuzilgan.

- A) Murod II B) Boyazid II
C) Boyazid I D) Sulton Salim

74. Abdullaxon II hukmronligi davrida Xurosonning qaysi yirik shaharlari egallangan.

- A) Balx, Nishopur, Marv
B) faqat Balx shahri
C) Nishopur, Mashhad, Ray
D) Marv, Nishopur, Mashhad

75. Navro'z Ahmadning ... qarorgohida 300 nafar turk askari doimiy xizmatda bo'lgan.

- A) Samarqanddagi B) Buxorodagi
C) Toshkentdagi D) Balxdagi

76. 1515-yilda Turkiya elchisi Buxoro xonligiga Sulton Salimning maktubini olib keladi. Sulton o'z maktubida qaysi shayboniy hukmdorni Eronga qarshi urushga chorlaydi?

- A) Ubaydullaxonni B) Abdullaxon II ni
C) Shayboniyxonni D) Abu Saidni

77. Buxoro xonligi va Eron manfaatlari to'qnashgan asosiy nuqta vazifasini bajargan hudud nomini ko'rsating?

- A) Hindiston B) Xorazm
C) Xuroson D) Badaxshon

78. Xurosonni nazorat qilish bo'yicha Shayboniylar va safaviylar o'rtasidagi kurashda qaysi Shayboniy hukmdorlar ustunlik qilgan?

- A) Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Ubaydullaxon
B) Shayboniyxon, Abu Said, Abdullaxon II
C) Shayboniyxon, Ko'chkinchixon, Abu Said
D) Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II

79. Abdullaxon II Ivan Grozniydan Buxoro savdogarlarini qaysi, hududdan erkin o'tishlariga ijozat so'raydi?

- A) G'arbiy Sirdan
B) Volga bo'ylaridan
C) Kavkazortidan
D) Turkmaniston hududidan.

80. Rossiya Buxoro xonligi orqali birinchi navbatdachiqish hisobga olingan edi.

- A) Turkiyaga B) Hindistonga
C) Xitoyga D) Arab dengiziga

81. Abdullaxon II tomonidan 1557-1558 – yillarda Moskvaga o‘z elchilarini yuboradi. Elchilar qaysi shahar orqali Moskvaga borib, Ivan Grozniy huzurida bo‘lishadi?

- A) G‘arbiy Sibir B) Volga bo‘ylari
C) Kavkazorti D) Astraxan

82. Abdullaxon II tomonidan 1557-1558 – yillarda Moskvaga elchilar yuboradi. Elchilar Moskvadan olib qaytishdi.

1. muynalar, 2. ko‘plab o‘q-dorilar, 3. ov qushlari, 4. matolar, 5. xushbo‘y atirlar, 6. charm mahsulotlari

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 4
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6

83. "Moskva savdo kompaniyasi" tashkil topishidan necha yil oldin xioniyalar Sug‘dga bostirib kirdi?

- A) 1101 yil oldin B) 1202 yil oldin
C) 1305 yil oldin D) 1408 yil oldin

84. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari rivojlana bordi.

- A) XV asr boshlaridan
B) XV asrning ikkinchi yarmidan
C) XVI asr oxiridan
D) XVI asrning ikkinchi yarmidan

85. Shayboniyxonning ta‘lim sohasidagi islohatiga ko‘ra ...

- A) Bir bosqichli o‘qitish tizimi joriy qilindi
B) Ikki bosqichli o‘qitish tizimi joriy qilindi
C) Ko‘p bosqichli o‘qitish tizimi joriy qilindi
D) Olti bosqichli o‘qitish tizimi joriy qilindi

86. Shayboniyxonning talim islohatiga ko‘ra, bolalar maktabda qancha vaqt o‘qir edilar?

- A) ikki yil B) olti yil C) besh yil D) uch yil

87. Quyidagilardan qaysi biri XVI asrda ko‘z kasalliklarini davolash bo‘yicha nom chiqargan edilar?

- A) Muhammad Mazid
B) Shohali ibn Sulaymon
C) Kavkabiyy
D) Hoja Muhammad

88. "Qibla tomonini toppish ma‘rifati" nomli asarining muallifi?

- A) Kavkabiyy B) Xo‘ja Hasan Nisoriy
C) Muhammad Husayni Buxoriy
D) Hoja Muhammad

89. Quyidagilardan qaysilari shayboniy hukmronligi davrida tarixiy asarlar yaratgan?

1. Kavkabiyy 2. Kamoliddin Binoiy 3. Muhammad Solih, 4. Baqo 5. Sulton Ali Samarqandiy 6. Fazlulloh ibn Ro‘zbexon
7. Ahmad Foriziy 8. Muhammad Haydar
9. Hofiz Tanish Buxoriy
A) 1, 2, 5, 6, 7, 8 B) 3, 5, 6, 7, 9
C) 1, 3, 4, 5, 6, 9 D) 2, 3, 6, 8, 9

90. "Buxoro juda katta shahar, unda g‘ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko‘p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo‘qdir".

Yuqorida keltirilgan so‘zlar kimga tegishli?

- A) Vamberiga B) Jenkensonga
C) Hofiz Ko‘hakiyga D) Muhammad Solihga

91. Abdullaxon II saroyida xizmat qilgan va "Malik ush-shuaro" unvoniga sazovor bo‘lgan shoirning nomini keltiring.

- A) Mushfiqiy B) Binoiy
C) Hofiz Ko‘hakiy D) Muhammad Solih

92. Shayboniyxon o‘z she‘rlarida qaysi shaharni Ka‘ba darajasida ulug‘lagan?

- A) Samarqandni B) Buxoroni
C) Xorazmni D) Marvni

93. Toshkentda qurilgan Baroqxon madrasasi gumbazining balandligi necha metrni tashkil etgan?

- A) 18 metrni B) 28 metrni
C) 22 metrni D) 36 metrni

94. 1530-1536-yillarda qurilgan Mir Arab madrasasi kim tomonidan qurilgan?

- A) Abdullaxon II B) Shayboniyxon
C) Ubaydullaxon D) Shayx Abdullo

95. Mir Arab madrasasi qurilganidan 148 yil oldin o‘lkamiz tarixida qanday voqea sodir bo‘ldi?

- A) Amir Temur Xorazmni egalladi
B) Amir Temur Hindistonga yurish qildi
C) Husayn Boyqaro Hurosonni egalladi
D) Mirzo Ulug‘bek vafot etdi

96. Tuyatortar kanali qaysi daryodan bosh olgan?

- A) Amudaryo B) Chirchiq
C) Sangzor D) Sirdaryo

2-mavzu: Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi

1. Ashtarxoniylar qachondan boshlab Astraxon va uning atrofidagi yerlar va xalqlar ustidan hukmronlik qila boshladi?
A) XV asrning 60-yillaridan
B) XIV asrning 80-yillaridan
C) XVI asrning 80-yillaridan
D) XIV asrning 70-yillaridan
2. Yormuhammadxon boshchiligidagi Ashtarxoniylarni Buxoroda kim kutib oldi?
A) Ubaydullaxon B) Iskandarxon
C) Abdullaxon D) Pirmuhammadxon
3. Jonibek Sulton kimning foydasiga Buxoro taxtidan voz kechdi?
A) Din Muhammad B) Vali Muhammad
C) Boqi Muhammad D) Pirmuhammadxon
4. Ashtarxoniy hukmdorlarning hokimiyatni bo shqargan yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1.Boqi Muhammad a) 1642-1645 yillarda
2. Vali Muhammad b) 1681-1702 yillarda
3. Imomqulixon c) 1601-1605 yillarda
4. Nodir Muhammad d) 1605-1611 yillarda
5. Abdulazizxon e) 1611-1642 yillarda
6. Subhonqulixon f) 1645-1681 yillarda

A)1-b, 2-d, 3-c, 4-f, 5-a, 6-e
B)1-c, 2-d, 3-e, 4-a, 5-f, 6-b
C)1-c, 2-d, 3-e, 4-b, 5-a, 6-f
D)1-c, 2-d, 3-e, 4-b, 5-f, 6-a
5. Boqi Muhammad Balxni bo'sundirgandan so'ng, Balxga hokim etib kimni tayinladi?
A) Din Muhammadni B) Imomqulixonni
C) Subhonqulini D) Vali Muhammadni
6. Boqi Muhammad Toshkent uchun kimlar bilan urush olib bordi?
A) Mo'g'ullar bilan B) Turkmanlar bilan
C) Uyg'urlar bilan D) Qozoqlar bilan
7. Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi biri Buxoro amirlari xonga qarshi isyon uyushtirganliklaridan xabar topgach taxtni tashlab, Eronga qochgan?
A) Boqi Muhammadxon
B) Vali Muhammadxon
C) Nodir Muhammadxon
D) Abulfayzxon
8. Ashtarxoniy Imomqulixon kimning o'g'li edi?
A) Dinmuhammadxonning
B) Boqi Muhammadxonning
C) Vali Muhammadxonning
D) Nodir Muhammadxonning
9. Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi biri qozoqlar hukmdori Keldimuhammad qo'shinlari bilan jang qilgan?
A) Abdulazizxon B) Vali Muhammadxon
C) Imomqulixon D) Boqi Muhammadxon
- 10.Boqi Muhammad Buxoro taxtiga kelmasdan oldin qaysi viloyat hokimi edi?
A) Balx B) Buxoro
C) Samarqand D) Marv
- 11.Imomqulixon Toshkent va xonlikning shimoliy-sharqiy chegaralari uchun kimlarga qarshi kurash olib bordi?
A) uyg'ur, tatar, qalmoqlarga
B) qozoq, jung'or, qalmoqlarga
C) qozoq, uyg'ur, oyratlarga
D) qazoq, turkman, qirg'izlarga
12. 1645-yilda qozoqlar Movarounnahrda yurish qilib, qayergacha yetib keladilar?
A) Samarqandgacha B) Buxorogacha
C) Xo'jandgacha D)Toshkentgacha
- 13.Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi biri Boburiy Shoh Jahon bilan kelishuv yo'lini tutib ya'ni undan yordam so'ragan?
A) Imomqulixon B) Nodir Muhammad
C) Abdulazizxon D) Subhonqulixon
14. Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi biri mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib 12 nafar o'g'li, 2 nafar jiyani va nabirasiga taqsimlab bergan?
A) Nodir Muhammad B) Ubaydullaxon
C) Subhonqulixon D) Imomqulixon
15. Shoh Jahonning o'g'illari Balxni qachon egallaydi?

- A) 1645- yilda B) 1647- yilda
C) 1681-yilda D) 1640- yilda

16.Vali Muhammad Balx hokimi etib tayinlangach, oradan necha yil o'tib Subhonqulixon Balx hokimiga aylanadi?

- A) 30 yil o'tib B) 46 yil o'tib
C) 49 yil o'tib D) 51 yil o'tib

17. Qaysi javobda tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) 1653 -yilda Xiva xoni Abulg'ozixon Buxoro atrofini ikki bor talon-taroj qildi
B) Xiva qo'shinlari tomonidan 1658- yilda Vardonze talandi
C) Abdulg'ozixon qo'shinlari 1662- yilda Buxoro shahrigacha yetib bordi
D) Abdulazizxon 1645-yilda Buxoro taxtiga o'tirdi

18. Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi birining hukmronligi davrida Xiva xoni Abdulg'ozixon Buxoroga yurush qiladi?

- A) Imomqulixon B) Abdulazizxon
C) Subhonqulixon D) Ubaydullaxon II

19.Quyidagi voqealardan qaysi biri Abdulazizxonning ukasi Subhonqulixon hukmronligi davrida yuz bergan?

- 1.Balx viloyatidagi hokimlik qilayotgan o'g'il-lariga qarshi kurash olib bordi
2.Qozoqlar hukmdori Keldimhammadga qarshi kurash olib borgan
3.Xiva xoni Anushaxon qo'shinlari Buxoro, Karmana Vardonzeni egalladi hatto Samarqandni ishg'ol qildi
4.Xiva xoni Anushaxonni taxtdan tushirdi
5."Registon(ya'ni Saroyning oldi) tinch bo'lsa bo'lgani" degan gapni xon doimo takrorlab turgan
6.1647-yilda Shoh Jahon o'g'illari Balxni egalladi
A) 1,3,4 B) 1,3,4,5 C) 3,4,6 D) 4,5,6

20.Subhonqulixonga yordam bergan Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq qaysi urug'dan bo'lgan?

- A) nayman B) qatag'on
C) uyg'ur D) yuz

21.Subhonqulixon Mahmudbiy otaliqdan qaysi muammoni hal qilishda foydalandi?

- A) Qozoqlarga qarshi kurashda

- B) Xiva qo'shinlarini Samarqanddan quvib chiqarish uchun

- C) Turkmanlarga qarshi kurashda
D) Mahalliy amir va beklarga qarshi.

22.Ubaydullaxon II taxtga o'tirgach dastlab qaysi viloyatni bo'ysundirish yo'lini izladi?

- A) Badaxshonni B) Balxni
C) Termizni D) Xivani

23.Mahmudbiy otaliq qachon o'zini Balxda xon deb e'lon qilgan?

- A) 1705 -yilda B) 1706 -yilda
C) 1707 -yilda D) 1708- yilda

24.Mahmudbiy o'zini xon deb e'lon qilgandan so'ng, tez orada qaysi viloyatni egallaydi?

- A) Termizni B) Balxni
C) Badaxshonni D) Marvni

25.Buxoro xonligi tasarrufida bo'lgan, Farg'ona vodiysining ajralib chiqish, harakati qachon boshlangan edi?

- A) XVII asr oxirida B) XVIII asr boshlarida
C) XVIII asr oxirida D) XIX asr boshlarida

26.Ashtarxoniy Abulfayzxonning hukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

- A) 1702-1711-yillarda B) 1711-1747- yillarda
C) 1718-1741 -yillarda D) 1681-1710- yillarda

27. Kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy qaysi viloyatning hukmdori edi?

- A) Samarqand B) Qarshi
C) Shahrisabz D) Buxoro

28.Kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy qaysi viloyat hokimlari bilan til birlashtirib poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi?

- A) Qarshi va Xo'jand
B) Urgut va Xo'jand
C) Urgut va Miyonqol
D) Miyonqol va Shahrisabz

29. Ibrohimbiy boshchiligidagi ittifoqchilar qachon Samarqandni egalladi?

- A) 1723-yilda B) 1725-yilda
C) 1726-yilda D) 1745-yilda

30.Quyidagilardan qaysi biri o'ziga amir ul-ulamoni unvonini olgan?

- A) Rajab Sulton

- B) Ibrohimbiy
- C) Muhammadbiy otaliq
- D) Muhammad Hakimbiy otaliq

31. Abulfayzxon hukmronligi davrida qozoqlar Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga necha yil davomida talonchilik yurushlarini amalga oshirdilar?

- A) besh yil
- B) yetti yil
- C) olti yil
- D) sakkiz yil

32. Abulfayzxon tomonidan Buxorodan chiqarib yuborilgan Muhammad Hakimbiy qayerga jo' nab ketdi?

- A) Shahrisabzga
- B) Qarshiga
- C) Samarqandga
- D) Termizga

33. Abulfayzxon hukmronligi davrida markaziy hokimyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytiradi. Natijada qaysi viloyatlar amalda mustaqil bo'lib oladilar?

1. Samarqand, 2. Qarshi, 3. Balx, 4. Farg'ona, 5. Badaxshon, 6. Miyonqol, 7. Kulob, 8. Qunduz
- A) 1,2,3,4,5
 - B) 2,3,4,5,6,8
 - C) 1,2,4,5,7
 - D) 5,6,7,8

34. Nodirshohning o'g'li Rizoqul 1736- yilda Amudaryodan o'tib, Buxoro xonligiga yurish qiliyotgan bir paytda, nima sababdan Nodirshoh buyrug'iga ko'ra, orqaga qaytishga majbur bo'ladi.

- A) Xiva xoni Elbarsxon yordamga kelayotganidan xabar topgan edi
- B) Buxoroda qo'zg'olon ro'y berganligi uchun
- C) Buxoro xoning muntazam qo'shini borligidan xabar topadi
- D) Rizoqul qo'shinida ro'y bergan tartibsizlik

35. Nodirshoh boshchiligidagi Eron qo'shinlari Buxoroni qachon egalladi?

- A) 1736- yilda
- B) 1747- yilda
- C) 1740- yilda
- D) 1752- yilda

36. Ashtarxoniylar davrida ichki va tashqi siyosatga doir masalalarni kim tomonidan hal qilingan.

- A) saroy qutvoli
- B) devonbegi
- C) xon
- D) otaliq

37. Shayboniylar davrida devonbegi xondan keyingi shaxs bo'lsa, ashtarxoniylar davrida bu lavozim o'rnini quyidagilardan qaysi biri egalladi.

- A) otaliq
- B) yana devonbegi
- C) saroy qutvoli
- D) inoq

38. Saroy qutlovi mansabining vazifasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) qo'shin ta'minoti bilan shug'ullangan
- B) bosh me'mor
- C) davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish va suv inshootlari barpo etish va obodonchilik ishlarini boshqargan
- D) xonning yaqin va ishonchli kishisi sanalgan

39. Ashtarxoniylar davrida davlat yerlari qanday nomlangan?

- A) amlak
- B) mulki sultoni
- C) podshohiy
- D) mulki hurri xolis

40. Ashtarxoniylar davrida xonda davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, yirik din ulamolari va sayyidlarga shaklida inom qilardi.

- A) suyurg'ol
- B) tanho
- C) iqto
- D) muqto

41. Xo'jalikning qaysi turi Ashtarxoniylar davrida mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib qolishidan saqlab turgan asosiy omil bo'lib hisoblangan.

- A) hunarmandchilik
- B) dehqonchilik
- C) chorvachilik
- D) savdo-sotiq

42. Qaysi Ashtarxoniy hukmdor davrida Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazilgan?

- A) Boqi Muhammadxon
- B) Ubaydullaxon II
- C) Abulfayzxon
- D) Imomqulixon

43. Ashtarxoniylar davrida qaysi shaharlarda yuqori sifatli yozuv qog'ozini ishlab chiqarilar edi?

- A) Buxoro va Samarqandda
- B) Samarqand va Balxda
- C) Samarqand va Miyonqolda
- D) Samarqand va Karmanada

44. Ashtarxoniylar davrida oltin iplar, qimmat baho toshlar va matolar qayerdan olib kelingan?

- A) Erondan
- B) Hindistondan
- C) Xitoydan
- D) Turkiyadan

45. Ashtarxoniylar davrida dori-darmon, choy, chinni idishlar hamda shoyi matolari qayerdan keltirilgan?

- A) Erondan B) Hindistondan
C) Xitoydan D) Turkiyadan
46. Qaysi Ashtarxoniy hukmdor davrida raiyatdan 7 yillik soliqlarni birdaniga yig'ib olish hollari bo'lgan?
A) Imomqulixon davrida
B) Subhonqulixon davrida
C) Ubaydullaxon davrida
D) Abulfayzxon davrida
47. Ubaydullaxon II tomonidan pul islohoti qachon o'tkazilgan?
A) 1702-yilda B) 1708-yilda
C) 1711-yilda D) 1706-yilda
48. Qaysi Ashtarxoniy hukmdor davrida aholidan yig'iladigan soliqlar miqdori 4 baravarga oshirilgan?
A) Boqi Muhammadxon B) Abulfayzxon
C) Ubaydullaxon II D) Imomqulixon
49. Ashtarxoniylar davrida boshlang'ich maktab - larda bolalar necha yil ta'lim olgan?
A) 6-7 yil B) 5-6 yil
C) 3-4 yil D) 5-8 yil
50. Ashtarxoniylar davrida talabalar iqtidoriga qarab, madrasada o'qish qancha vaqt davom etgan?
A) 5-8 yil B) 7-12 yil
C) 7-10 yil D) 5-15 yil
51. XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligi shaharlarida nechta madrasa bo'lgan?
A) 130dan ortiq B) 160dan ortiq
C) 150dan ortiq D) 170dan ortiq
52. Ashtarxoniylar davrida talabalar uchun qaysi fanni o'rganish majburiy edi?
A) tasavvuf B) falsafa
C) tilshunoslik D) fiqh
53. XVII-XVIII asrlarda madrasalarda o'qish ...
A) "avvali ilm" deb nomlangan fors tilidagi o'quv qo'llanmasini o'zlashtirishdan boshlangan
B) arab tili grammatikasini o'zlashtirishdan boshlangan
C) fiqh fanini o'zlashtirishdan boshlangan
D) falsafani o'zlashtirishdan boshlangan

54. "Davriylik haqida risola" asarining muallifini ko'rsating?
A) Muhammad Amin Buxoriy
B) Muhammad Sharif Buxoriy
C) Muhammad Zamon Buxoriy
D) Abdurahmon To'le
55. Ashtarxoniy hukmdorlardan qaysi birining davrida Buxoroda "Dorul ush-shifo" qurilgan?
A) Abdulazizxon B) Subhonqulixon
C) Ubaydullaxon D) Boqi Muhammadxon
56. Asar mualliflari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1. "Xoqonga foydali maslahatlar", 2. "Baxr ul - asror", 3. "Hayvonotnoma", 4. "Irfon", 5. "Bahoriyat", 6. "Qipchoqxon tarixi"
a) Sharif Buxoriy, b) Mahmud ibn Vali c) Bedil, d) Turdi Farog'iy, e) Nasafiy
A) 1-b,2-a,3-e,4-c,5-d
B) 1-a,2-b,3-c,4-d,5-e
C) 1-a,2-b,3-e,4-c,5-d
D) 1-b,2-a,3-c,4-c,5-e
57. Turdi Farog'iy ashtarxoniylar sulolasining qaysi hukmdori davrida ijod qilgan?
A) Boqi Muhammadxon
B) Ubaydullaxon II
C) Abulfayzxon
D) Subhonqulixon
58. kitobida shariat qonun-qoidalari, ijtimoiy hayot va axloqiy muammolarga oid ma'lumotlar, hukmdorlar to'g'risida qiziqarli lavhalar o'z ifodasini topgan.
A) "Xoqonga foydali maslahatlar"
B) "Irfon"
C) "Davriylik haqida risola"
D) "Qipchoqxon tarixi"
59. Quyidagi ijodkorlardan qaysi birining haqiqiy ismi Mirzo Abdulqodir bo'lgan?
A) Sayido Nasafiyning B) Bedilning
C) Turdining D) So'fi Olloyorning
60. Quyidagilardan qaysi biri "Abdulmaoniy" (ma'nolar otasi) nomini olgan?
A) Bedil B) Muhammad Yusuf
C) Sayido Nasafiy D) So'fi Olloyor

61. Quyidagi keltirilgan asarlarning qaysi birida samarqandlik va buxorolik 20 nafar olim haqida ma'lumot berilgan?

- A) "Baxrul-asror" B) "Muhabbatnoma"
C) "Axloq husnlari" D) "Muhit ut-tavorix"

62. Quyidagi tarixiy asarlarning mualliflari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. "Tarixiy Muqimxoniy"

2. "Ubaydullanoma"

3. "Bahr ul-asror"

4. "Abulfayzxon tarixi"

5. "Tarixlar dengizi"

a) Mahmud ibn Vali, b) Abdurahmon Tole,
c) Muhammad Zamon Buxoriy, d) Muhammad Amin Buxoriy, e) Muhammad Yusuf Munshiy

A) 1-a,2-b,3-c,4-d,5-e B) 1-e,2-d,3-a,4-b,5-c

C) 1-a,2-c,3-b,4-d,5-e D) 1-b,2-a,3-e,4-d,5-c

63. Bedilning fikricha, dunyo abadiy bo'lib, ... jumlaning davom ettiring.

A) u adolatsiz va g'am-qayg'uga to'la

B) havo, yer, suv, olovdan iborat

C) to'xtovsiz harakat qiladi va o'zgarib turadi

D) uning chegarasi ko'rinmaydi

64. Bedilning "Irfon" dostonida o'z davrining qaysi fanlaridagi xilma-xil masalalar bayon etilgan?

A) falsafa, tarix, ilohiyot.

B) fiqh, tarix, astronomiya

C) tarix, fiqh, falsafa

D) umuman fanlar to'g'risida ma'lumot keltirilmagan

65. Quyidagilardan qaysi biri Dehlida vafot etgan?

A) Muhammad Zamon Buxoriy

B) Mulla Tursun

C) Mirzo Abdulqodir

D) Turdi Farog'iy

66. "Bahr ul-asror" nomli asar qachon yozilgan?

A) 1635-yilda B) 1620-yilda

C) 1644-yilda D) 1636-yilda

67. Zamondoshlari quyidagilardan kimni "Buxoro shoirlari tarixida sulton" deb ulug'lashgan?

A) Bedilni B) Muhammad Yusufni

C) Sayido Nasafiyini D) So'fi Olloyorni

68. Nechanchi asrda Samarqand Registoni ansambilining hozirgi qiyofasi shakllantirildi?

A) XVI asrda

B) XVII asrda

C) XVIII asrda

D) XVI asr oxirida

69. Sherdor madrasasi nechanchi yillar mobaynida barpo etilgan?

A) 1619-1635-yillarda

B) 1646-1660-yillarda

C) 1620- yilda

D) 1618-1628-yillarda

70. Tillakori madrasa-masjidi qachon barpo etilgan?

A) 1620-yilda

B) 1652-yilda

C) 1619-1635-yillarda D) 1646-1660-yillarda

71. Nodirdevonbegi qachon bo'yi 45 metr eni 36 metr chuqurligi 5 metr bo'lgan Hovuz qurdirgan?

A) 1619-yilda

B) 1620-yilda

C) 1642-yilda

D) 1625-yilda

72. 1652-yil Buxoroda qurilgan qo'sh imoratli madrasani kim qurdirgan?

A) Ubaydullaxon II

B) Subhonqulixon

C) Abulfayzxon

D) Abdulazizxon

73. Boqi Muhammad kimlarga qachon zarba berib, Balxni qo'lga kiritdi?

A) 1503- yilda Tukmanlarga

B) 1602- yilda Safaviylarga

C) 1604- yilda Qozoqlarga

D) 1605- yilda Xorazmliklarga

3-mavzu: Buxoro amirligi

1. Qaysi javobda tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan?

A) Muhammad Hakimbiy 1743- yilda vafot etdi

B) Eron shohi Nodirshoh 1747- yilda o'ldiriladi

C) 1753 yilda Buxoroda hokimiyat tepasiga

yangi sulola mang'itlar sulolasi keldi

D) Abulfayzxon 1746 -yilda o'ldiriladi

2. Mang'it hukmdori Muhammad Rahimbiy tomonidan amalga oshirilgan siyosat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Muhammad Rahimbiy ichki boshbosh doqlikni tugatish siyosatini tutdi, 2. qaysi mahalliy hukm - dor markaziy hokimiyatga bo'sunmasa, undaylar ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi,

3. markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirib yuborish siyosatini tutdi, 4. boj va xirojdan boshqa barcha soliqlar kamaytirildi, 5. kumush tanga zarb etildi, 6. qozi askar mansabining nufuzini oshirdi

- A) 1,2,3,6 B) 2,3,4,5
C) 1,2,3 D) 1,2,3,4,6

3. Nima uchun mang'it hukmdorlari o'zlarini xon emas amir deb e'lon qilganlar?

- A) ular payg'ambar urug'idan bo'lmagan
B) ularning avlodlari hukmdor bo'lishmagan
C) XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zlarini xon deb atay boshlashadi
D) ularning avlodlari chingiz avlodidan bo'lishmaganligi sababli

4. Qaysi mang'it sulolasidan bo'lgan hukmdor davridan boshlab Buxoro hukmdorlari amir deb yuritila boshlangan?

- A) Muhammad Rahimxon
B) Donyolbiy otaliq
C) Amir Shohmurod
D) Muhammad Hakimbiy

5. Muhammad Rahimxon mustaqillikni da'vo qilib yurgan bekliklarni to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Bular....

1. Miyonqol, 2. Nurota, 3. Qo'badiyon, 4. Boysun, 5. Shahrizabz, 6. G'uzor, 7. Urgut, 8. Karki.
A) 1,2,4,5,7 B) 1,2,3,7,8.
C) 1,3,5,7,8 D) 2,4,6,7,8.

6. Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxonning hukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) 1753-1758-yillarda B) 1753-1756-yillarda
C) 1758-1785-yillarda D) 1785-1800-yillarda

7. Donyolbiy otaliq hukmronligi davrida yuz bergan voqealar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. barcha mang'it beklariga katta yer mulkni tanho qilib berdi, 2. xalqdan olinadigan soliqlarni kamaytirdi, 3. Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa viloyatlarining mustaqillikka intilishi kuchaydi, 4. xalqlardan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi, 5. katta yer egalari o'zboshimchaliklarini sindira olmadi, 6. pul islohoti o'tkazdi
A) 1,2,3,5,6 B) 1,3,4,5
C) 2,5,6 D) 2,3,4,5

8. Amir Donyolbiyning hukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1756-1758-yillar B) 1758-1785-yillar
C) 1785-1800 -yillar D) 1800-1826-yillar

9. Amir Shohmurod davrida amalga oshirilgan ishlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

1. Buxoro madrasalarida chet davlatlardan kelib o'qishni boshlashgan, 2. Samarqand shahrida katta bunyodkorlik ishlarini olib bordi, 3. boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi, 4. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qozi askar mansablari nufuzini yanada orttirgan, 5. pul islohoti o'tkazildi
A) 1,2,5 B) 2,3,4 C) 2,3,4,5 D) 1,2,3,5

10. Xarvor-?

- A) bir otga yuk bo'ladigan og'irlik o'lchovi
B) bir eshakka yuk bo'ladigan og'irlik o'lchovi
C) ikki tuyaga yuk bo'ladigan og'irlik o'lchovi
D) harbiy mansab

11. Shohmurod yilda kiyib yuradigan mahsi kovushning nomi bu

- A) saxtiyon B) muazzin
C) xarvor D) qiyma maxsi

12. Shohmurod o'z faoliyatida kimlarga tayanib ish tutgan?

- A) shayxlarga B) harbiy qo'shinga
C) asosan qo'shbegiga D) ommaga

13. Buxoro amirligi ... viloyat va tumanlardan iborat edi

- A) 40 ta B) 30 ta C) 27 ta D) 38 ta

14. Buxoro amirligi aholisining asosiy qismini...

- A) o'zbek, tojik va qozoqlar tashkil etgan
B) o'zbek, turkman va tojiklar tashkil etgan
C) o'zbek, turkman va qoraqolpoqlar tashkil etgan
D) tojiklar va qirg'izlardan iborat bo'lgan

15. Amlodkor so'zining lug'aviy ma'nosini keltiring.

- A) qaram dehqon B) ishonchli
C) halol odam D) mulk egasi

16. Bu lavozimning asosiy vazifasi amaldorlar xonga inom etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yhatga olgan. Yuqoridagi keltirilgan vazifalarni qaysi bajargan?

- A) qo'shbegi B) devonbegi

32. Buxoro amirligi o'zining... mashhur edi.

- A) o'rik va bodomi bilan
- B) qovun va uzumi bilan
- C) nok va sabzisi bilan
- D) paxtasi bilan.

33. Qaysi hukmdor Samarqand markazida olti qirrali chorsu qurdirib, "Toqi muqaddas" deb atagan?

- A) Shayboniyxon
- B) Ubaydullaxon II
- C) Amir Shohmurod
- D) Amir Haydar

34. Ashtarxoniylar davrida vayronaga aylangan Samarqand kimning davrida qayta tiklandi?

- A) Muhammad Rahimxon davrida
- B) Amir Shohmurodning davrida
- C) Donyolbiy davrida
- D) Amir Haydar davrida

35. XIX asrda Samarqand shahrining aholisi qancha edi?

- A) 50-60 ming
- B) 35-40 ming
- C) 25-30 ming
- D) 40-50 ming

36. XIX asrning 40-yillarida Buxoroda nechta karvonsaroy bo'lgan?

- A) 28 ta
- B) 38 ta
- C) 48 ta
- D) 65 ta

37. Samarqandning 2750-yilligi qachon nishonlandi?

- A) 2003-yilda
- B) 2005-yilda
- C) 2007-yilda
- D) 2009-yilda

38. Shaharda 2 ta karvonsaroy va 3 ta hammom bo'lgan. Bu Buxoro amirligidagi qaysi shahar?

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- C) Shahrisabz
- D) Qarshi

39. Tanob so'zining lug'aviy ma'nosi.....

- A) chilvir, arqon
- B) chilvir, g'alvir
- C) o'lchov birligi
- D) ekin maydoni

40. Buxoro shaxrining 2500 yilligi qachon nishonlandi?

- A) 1993-yilda
- B) 1995-yilda
- C) 1997-yilda
- D) 1999-yilda

41. XIX asrning boshlarida Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari edi.

- A) olachasi va turli rangdor matolari

B) xom teri, qo'y terisini turli ranglarga bo'yab tikkan kamzullari

- C) to'q qizil rangli baxmali
- D) kashtasi, shoyisi

42. Buxoroliklarning qozoqlar bilan savdo-sotiq qilishlarida kimlar vositachilik qildi?

- A) turkmanlar
- B) qirg'izlar
- C) qoraqolpoqlar
- D) samarqandliklar

43. 1804-yilda Buxoro amirligi savdogarlarining qarorgohi Rossiyaning qaysi shahrida barpo etilgan?

- A) Moskvada
- B) Orenburgda
- C) Orskda
- D) Petrburgda

44. 1844-yilda Buxoro xonligining O'rta Osiyoda Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 25%ni tashkil etardi. 1864-yilga kelib mazkur ko'rsatkich qanchani tashkil etdi?

- A) 32%
- B) 42%
- C) 52%
- D) 60%

45. Amir Shohmurodning hukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1658-1685-yillar
- B) 1756-1758-yillar
- C) 1758-1785-yillar
- D) 1785-1800-yillar

46. Amirlikning shahrida hind savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan mahallalar bor edi.

- A) Samarqand
- B) Buxoro
- C) Shahrisabz
- D) Qarshi

47. Amir Haydar Buxoro taxtiga o'tirgach, ayrim viloyatlar hukmdorlari nima sababdan markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringanlar?

- A) uning tajribasizligidan foydalanib
- B) soliqlarni oshirgani uchun
- C) uning Xiva xonligiga qarshi yurish qilgani uchun
- D) Sultonbandi tug'onini buzgani uchun

48. 1804-yilda Marv shahrida Dinnosirbek bosh chiligida qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olondan ko'zlangan maqsad?

- A) ko'tarilib ketgan soliqlarni kamaytirish
- B) Dinnosirbekni amirlik taxtiga o'tqazish
- C) O'lpon yig'uvchilarning o'zboshimchaligini bostirish
- D) Amaldorlarga qarshi keskin choralar ko'rish

49. Amir Haydar yuborgan qo'shından mag'lubi-yatga uchragan Dinnosirbek qayerga qochadi?
A) Eronga B) Turkiyaga
C) Hindistonga D) Xitoyga
50. 1821-yilda Amir Haydarga qarshi qayerda qo'zg'olon ko'tariladi?
A) Marvda B) Miyonqolda
C) Buxoroda D) Samarqandda
51. Amir Haydarning hukmronlik yillari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) 1758-1785-yillarda B) 1785-1800-yillarda
C) 1800-1826-yillarda D) 1826-1860-yillarda
52. Nima sababdan Marvliklar 1804-yilda amir yuborgan qo'shinga qarshi jang qilmay, o'zlari yashab turgan joylarini tashlab chiqdilar?
A) qo'shimcha kuchlar kelayotganini eshitib
B) Sultonbandi to'g'oni buzilgani uchun
C) amir soliqlarni oshirgani uchun
D) Dinnosirbek yengilgani uchun
53. Amir Nasrullo Amir Haydarning nechanchi o'g'li edi?
A) birinchi B) ikkinchi
C) uchinchi D) to'rtinchi
54. Marvdagi qo'zg'olonni bostirish uchun amir Haydar kimni yuboradi?
A) Amirni o'zi borgan
B) Doniyolbiy otaliqni
C) o'g'li Nasrulloni
D) Niyozbek parvonachini
55. Buxoro amirlaridan qaysi biri birinchi bo'lib 40 mingga yaqin sarbozdan iborat muntazam piyoda qo'shin tuzdi?
A) Amir Doniyolbiy B) Amir Haydar
C) Amir Nasrullo D) Amir Shohmurod
56. Amir Nasrullo hukmronligining nechanchi yilida Shahrizabz va Kitobni egalladi?
A) yigirmanchi B) o'ninchi
C) o'n sakkizinchi D) o'ttizinchi
57. Amir Nasrullo 1837-yilda o'tkazgan harbiy islohatiga ko'ra, dastlab qancha piyoda askarlik qo'shinini tuzgan?
A) 1800 kishilik B) 100 kishilik
C) 800 kishilik D) 8800 kishilik
58. Amir Nasrullo to'pchilar qo'shinini qachon tashkil qildi?
A) 1837 yilda B) 1847 yilda
C) 1851 yilda D) 1835 yilda
59. "Gulshan ul-muluk" asarining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Yoqub ibn Doniyolbiy Buxoriy
B) Mirzo Shams Buxoriy
C) Muhammadniyoz Nishotiy
D) Mujrim-Obid
60. Muhammadniyoz Nishotiyning asarlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
1. "Xusnu Dil" 2. "Axloqiy Muxsiniy" 3. "Qushlar munozarasi" 4. "Shohi darvish" 5. "Ajoyib at-taboqat"
A) 1,2 B) 1,3 C) 1,4 D) 1,5
61. Quyidagi allomalardan qaysi birining ko'zi tug'ma ojiz bo'lgan?
A) Hiromiyning B) Shavqiyning
C) Volaning D) Ahmad Donishning
62. Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asarida mehnat ahlining ulug'langan.
A) qiynalganligi B) kamtarligi
C) qashshoqligi D) irodasizligi
63. "Axloqi Muhsiniy" asarining muallifini ko'rsating?
A) Muhammadniyoz Nishotiy
B) Junaydulloh
C) Mir Ma'sum Olamiyon
D) Mirza Sodiq Jondoriy
64. Ahmad Donish necha yil Buxoro saroyi kutubxonasida hattot va rassom bo'lib ishlagan?
A) 20 yil B) 18 yil C) 15 yil D) 23 yil
65. Buxoro "Shashmaqomi" qachon vujudga kelgan?
A) XVII asr oxirida
B) XVIII asr oxirida
C) XIX asr oxirida
D) XVII asrning birinchi yarmida
66. Buxoro Shashmaqomi necha maqomdam iborat edi?
A) olti B) yetti C) sakkiz D) to'qqiz

67. Buxoro Shashmaqomi....dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

- A) 150 B) 250 C) 350 D) 450

68. Mirzo Sodiq Jondariy qaysi hukmdor davrida Sa'diy va Hofiz asarlariga rasmlar ishlagan?

- A) Amir Nasrullo B) Amir Shohmurod
C) Amir Haydar D) Amir Donyolbiy

69. Ma'sum Olomiyon qaysi hukmdor davrida "Axloqiy Muhsiniy" asariga rasm chizgan?

- A) Amir Nasrullo B) Amir Shohmurod
C) Amir Haydar D) Amir Donyolbiy

70. Quyidagilardan qaysi biri "Shohi darvish" va "Ajoyib at-taboqat" asrlarini bezagan va rasm chizgan?

- A) Ahmad Donish B) Mirzo Sodiq Jondariy
C) Ma'sum Olomiyon D) Shavqiy

**4-mavzu: Xiva xonligining tashkil topishi.
XVI-XVIII asrlarning birinchi yarmida
xonlikning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va
madaniy hayoti.**

1. Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazm...

- A) Xuroson davlati tasarrufida edi
B) Eron davlati tarkibida edi
C) Buxoro xonligiga bo'ysungan
D) Usmonli Turklarga bo'ysungan

2. Xorazm hokimi Chin So'fi qaysi qabiladan chiqqan edi?

- A) qo'ng'orot B) nayman
C) mang'it D) qiyot

3. Qaysi javobda tarixiy xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) 1505- yilda Shayboniyxon Xorazmni egallaydi
B) 1511- yilda Xorazm Eron qo'shinlari tomonidan egallanadi
C) Xiva xonligida Shayboniylar hukmronligi 1770- yilgacha davom etdi
D) Amudaryo 1573- yildan boshlab Kasbiy dengiziga oqmay qo'ydi

4. Xiva xonligi asoschisi qaysi sulola bo'ldi?

- A) Ashtarxoniylar B) Shayboniylar
C) Safaviylar D) qo'ng'irotlar

5. Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti....

- A) Urganchdan Vazir shahriga ko'chirildi
B) Vazirdan Urganch shahriga ko'chirildi
C) Urganchdan Xivaga ko'chirildi
D) Xivadan Urganchga ko'chirildi

6. Elbarsxon davrida qaysi omil xonlik hukmdorligini ijtimoiy tayanchini mustahkamladi?

- A) soliqlarning kamaytirilishi
B) Urushlarning kam bo'lganligi
C) Dashti Qipchoqdan ko'pgina qabilalarning Xorazmga ko'chib kelishi
D) Eron qo'shinlarining mamlakardan quvub chiqarilishi

7. Shayboniy Ubaydullaxon Xorazmga hujum qilgan vaqtda Xiva hukmdori kim edi?

- A) Elbarsxon B) Avanishxon
C) Hojimaxon D) Chin So'fi

8. Shayboniy Ubaydullaxon qachon Xorazmni egallaydi?

- A) 1517-1518yillarda B) 1528-1530 yillarda
C) 1536-1537yillarda D) 1537-1538 yillarda

9. Elbarsxon eroniylarni mamlakatdan butunlay quvib chiqarganidan necha yil oldin Amir Temurning besh yillik yurishlari boshlangan?

- A) 120 yil oldin B) 123 yil oldin
C) 128 yil oldin D) 116 yil oldin

10. Abdullaxon II Xorazmga yurish qilgan vaqtda Xiva xoni kim edi?

- A) Elbarsxon B) Arab Muhammad
C) Hojimaxon D) Avanishxon

11. "Noib" so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- A) forsha, maslahatchi
B) arabcha, o'rinbosar
C) turkcha, hukmdor
D) arabcha, bosh eguvchi

11. Meksikada ispanlarga qarshi mustaqillik harakatiga quyidagilardan qaysilar boshchilik qilgan?

- A) Migel Idalgo va Xose Morelos
- B) Migel Idalgo va Simon Bolivar
- C) Tussen Lvertiyur va Xose San-Martin
- D) Simon Bolivar va Xose Morelos

12. Lotin Amerikasi davlatlarining mustaqil bo'lgan sanalar bilan moslashtiring.

- 1. Chili mustaqillikka erishdi
- 2. Braziliya mustaqil deb e'lon qilindi

3. Paragvay mustaqillikka erishdi

4. Argentina mustaqillikka erishdi

5. Urugvay to'la mustaqillikka erishdi

6. Meksika mustaqillikka erishdi

7. Yuqori Peru Ispaniya zulmidan uzil-kesil ozod bo'ldi

a) 1813-yilda, b) 1816-yilda, c) 1818-yilda,

d) 1821-yilda, e) 1822-yilda,

f) 1825-yilda, j) 1828-yilda

A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-j, 6-e, 7-f

B) 1-d, 2-e, 3-a, 4-b, 5-f, 6-c, 7-j

C) 1-c, 2-e, 3-a, 4-b, 5-j, 6-d, 7-f

D) 1-c, 2-e, 3-a, 4-j, 5-f, 6-d, 7-b

13. Argentinani kim boshchiligidagi qo'shin ozod qilgan edi?

- A) Simon Bolivar
- B) Tussen Lvertiyur
- C) Migel Idalgo
- D) Xose San-Martin

14. Quyidagi shaxslardan qaysi biri "Xaloskor" degan faxriy nom olgan?

- A) Migel Idalgo
- B) Tussen Lvertiyur
- C) Xose San-Martin
- D) Simon Bolivar

15. Quyidagilardan qaysi biri "Inqilobga xizmat qilish – bu dengizni shudgor qilish bilan barobardir", – deb yozgan edi?

- A) Xose San-Martin
- B) Tussen Lvertiyuz
- C) Migel Idalgo
- D) Simon Bolivar

16. Buyuk Kolumbiya Respublikasining birinchi prezidentini aniqlang?

- A) Xose San-Martin
- B) Xose Morelos
- C) Simon Bolivar
- D) Migel Idalgo

17. "Ispaniya mening mamlakatimni bandi qilgan zanjirlarni parchalab tashlamaguncha xotirjam bo'lolmayman", degan so'zlar qaysi ozodlik kurashchisiga tegishli?

- A) X. S. Martin
- B) S. Bolivar
- C) M. Idalgo
- D) X. Morelos

18. Buyuk Kolumbiya Respublikasiga birlashgan davlatlarni aniqlang?

- A) Venesuela, Meksika
- B) Peru, Boliviya
- C) Argentina, Braziliya
- D) Yangi Grenada, Venesuela

5-mavzu: XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davtda Hindiston

1. Buyuk Britaniya hukmron tabaqalari yangi asrda ham Hindistonni butunlay o'z mustamlakalariga aylantirish siyosatini davom ettirib, hukumat shu maqsadda qanday kengash tashkil qildi?

- A) Hindistonni boshqarish kengashi
- B) Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi
- C) Ozodlik farzandlari tashkiloti
- D) Isyonlarni bostirish bo'yicha

2. "Ost-Indiya" kompaniyasining qarorgohi Hindistondagi qaysi shaharda joylashgan edi?

- A) Bombey
- B) Kalikut
- C) Kalkutta
- D) Madras

3. Hindiston qachon Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilingan?

- A) 1707-yilda
- B) 1858-yilda
- C) 1857-yilda
- D) 1765-yilda

4. Hindistondagi sipohiyalar qo'zg'olonini bostirish vaqtida mustamlakachilar, Dehliga olib kirdilar va bu tadbir jang taqdirini hal qildi.

- A) to'plarni fillarga ortib
- B) to'plarni tualarga ortib
- C) to'plarni aravalarga ortib
- D) to'plarni maxsus mashinalarga ortib

5. Ingliz zobitlari rahbarlik qiluvchi hindlardan tuzilgan qo'shin qanday nomlangan?

- A) navkar
- B) sarboz
- C) sipohi
- D) oddiy jangchilar

6. Hindistonda sipohilar qo'zg'oloni qachon boshlangan?

- A) 1848-yilda
- B) 1858-yilda
- C) 1852-yilda
- D) 1857-yilda

7. Xitoy imperiyasining istilochilik qudrati qachondan zaiflasha boshladi?

- A) XVIII asr boshlaridan
- B) XIX asr o'rtalaridan
- C) XVIII asr oxirlaridan
- D) XIX asr 60-yillari boshlarida

8. 1757-yilda Xitoyda tashqi savdo faqat qaysi port orqali olib boriladigan bo'ldi?

- A) Shanxay
- B) Guanchjou
- C) Kanton
- D) Dunxuan

9. Ikkinchi Afyun urushi qaysi yilda yuz bergan?

- A) 1842-yilda
- B) 1848-yilda
- C) 1856-yilda
- D) 1859-yilda

10. Birinchi afyun urushi tugagach oradan necha yil o'tib ikkinchi afyun urushi boshlangan?

- A) 15 yil
- B) 12 yil
- C) 14 yil
- D) 16 yil

11. Xitoyda Taypinlar qo'zg'oloni qaysi yillarda sodir bo'lgan?

- A) 1852-1862 – yillarda
- B) 1850-1864- yillarda
- C) 1854-1866- yillarda
- D) 1854-1864- yillarda

12. Taypinlar qo'zg'olonini bostirishda Xitoy hukumatiga yordam bergan davlatlarni aniqlang?

- A) Rossiya, AQSh, Germaniya
- B) Faqat AQSh
- C) Buyuk Brinaniya va Fransiya
- D) AQSh, Buyuk Brinaniya, Fransiya

13. Taypinlar qo'zg'oloni mag'lubiyatga uchragandan so'ng qo'zg'olon rahbariga qanday ja'zo berildi?

- A) surgun qilindi
- B) Hammani ko'z o'ngida dorga osildi
- C) Qo'zg'olon rahbari o'zini-o'zi o'ldirdi
- D) Qatl etildi

14. Xitoycha "Taypin tyango" so'zining ma'nosi nima?

- A) "samoviy mo'l-ko'lchilik davlati"
- B) "teng huquqli davlat"
- C) "afsonaviy maskan"
- D) "dehqonlar imperiyasi"

15. "Samoviy mo'l-ko'lchilik davlati" ("Taypin tyango") Xitoyning qaysi viloyatida barpo etdilar?

- A) Shanxay
- B) Yanszi
- C) Kanton
- D) Dunxuan

16. Yaponiyada xristian dinining tarqalishi nechanchi asrdanoq taqiqlangan edi?

- A) XVIII asrda
- B) XVI asrda
- C) XIX asr boshlarida
- D) XVII asr o'rtalarida

17. 1854-yilda

1. AQSH dengiz floti Yaponiyani ochishga majbur etdi, 2. AQSH va Yaponiya o'rtasida "Tinchlik va do'stlik to'g'risida" shartnoma imzolandi, 3. AQSH tovarlari uchun past to'lovlar belgilandi, 4. Yaponiya AQSH uchun beshta portini ochdi

5. Yaponiya AQSH uchun bir nechta portini ochdi, 6. Yaponiya AQSH uchun ikkita portini ochdi, 7. AQSH konsulini qabul qildi, 8. AQSH va Yevropa davlatlarining maqsadi Yaponiya bozorlarini egallash edi

- A) 1, 3, 5, 7, 8 B) 1, 2, 3, 6, 7, 8
C) 1, 2, 3, 5, 7 D) 2, 4, 6, 7, 8

18. 1858-yilda.....

1. Amerikaliklarga yana bir nechta port ochildi, 2. Yaponiya AQSH uchun ikkita portini ochdi, 3. Yaponiyadagi AQSH fuqarolariga eksterritoriallik huquqi berildi,

4. AQSH konsulini qabul qildi, 5. Ayni paytda AQSH tovarlari uchun juda past boj to'lovlari belgilandi, 6. Tez orada Yevropa davlatlari uchun ham juda past to'lovlari belgilandi

- A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 6
C) 1, 2, 3 D) 2, 4, 6

19. Nechanchi yilda Yaponiya imperatori Musuxito Meydzi nomi bilan toj kiydirildi?

- A) 1854-yilda B) 1866-yilda
C) 1858-yilda D) 1867-yilda

20. Meydzi islohatiga ko'ra hosildan olinadigan daromad hajmining necha foiziga teng edi?

- A) 30 foiziga B) 40 foiziga
C) 50 foiziga D) 60 foiziga

21. Yaponiyada o'tkazilgan harbiy islohatga ko'ra

1. Yaponiyada umumiy majburiyat joriy qilindi, 2. Samuraylar avvalgi qiyofasini yo'qotdi, 3. Endi samuraylar doimiy harbiy xizmatda bo'lish imtiyozidan mahrum bo'ldi, 4. Samuray larga ayrim erkinliklar joriy etildi, 5. Yevropa nusxasidagi yangi qo'shin shakllantirildi. 6. AQSHdan harbiy mutaxassislar taklif etildi, 7. Fransiyadan harbiy mutaxassislar taklif etildi

- A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 3, 5, 7
C) 1, 2, 4, 5, 7 D) 2, 4, 6

22. Koreyada Li sulolasining asoschisi Li Songning hukmronlik yillarini belgilang.

A) 1352-1362 – yillarda

B) 1392-1398- yillarda

C) 1354-1366- yillarda

D) 1314-1324- yillarda

23. 1592-yilda Yaponiya Koreya hududiga bostirib kirdi va koreys qo'shinlarini yengib, dastlabni, keyinroq esani egalladi.

- A) Seul, Pxenyan B) Pxenyan, Seul
C) Tejan, Xerosima D) Pxenyan, Tejan

24. Yaponiyaning "quloqlar qabristonida" koreyslardan kesib olingan ko'milgan.

- A) 30 mingta burun va quloq
B) 30 oyoq va mingta quloq va burun
C) 25 ta quloq va burun
D) 30 mingta oyoq va burun

25. 1592-yilda Yaponiya Koreyani bosib olgandan so'ng, koreyslar tomonidan nima deb atalgan partizan guruhlar tuzildi?

- A) "G'alabaga ishonch"
B) "Matonat uchqunlari"
C) "Ozodlik farzandlari"
D) "Haq ish uchun"

26. 1593-yilda Koreya yapon qo'shinlarini mamlakatdan qo'vib chiqorish uchun qaysi davlat bilan birlashib harakat qiladi?

- A) Rossiya bilan B) Xitoy bilan
C) Eron bilan D) Fransiya bilan

27. Xitoyda o'z hukmronligini o'rnatishga intilayotgan manjurlar Koreyaga ikki bor hujum uyushtirgan. Bu hujumlar qaysi yillarda amalga oshirilgan?

- A) 1627-yil, 1636-yilda
B) 1592-yil, 1636-yilda
C) 1628-yil, 1636-yilda
D) 1626-yil, 1636-yilda

28. 1637-yildagi shartnomaga ko'ra Koreya qiroli o'zini manjurlarning vassali deb tan olindi. Koreya hukumatiga quyidagi qaysi majburiyatlarni bajarish sharti qo'yildi?

1. Koreya hukumati Minlar sulolasi bilan har qanday munosabatlarni to'xtatishga, 2. Manjurlarga qo'shin, qurol-aslaha, kemalar bilan Xitoyga qarshi bo'lajak urushda yordam berish, 3. Har yili oltin, kumush, bug'doy, javdar, guruch hisobida o'lpon to'lab turish, 4. Har yili oltin,

kumush, guruch, ipak matolar va qog'oz bilan o'lpon to'lab turish

- A) 1,3 B) 1, 2
C) 1, 2, 3 D) 1, 2, 4

29. Qirol Yonchjon Koreyani nechanchi yillarda boshqargan?

- A) 1637-1648-yillarda
B) 1725-1776-yillarda
C) 1592-1598-yillarda
D) 1627-1636-yillarda

30. Nechanchi yilda Rim papasi Koreya yepiskopligi tuzilganligini e'lon qiladi?

- A) 1776-yilda B) 1832-yilda
C) 1831-yilda D) 1785-yilda

31. Buxoroda Amir Shohmurod hukmronligi boshlangan yili – jahon tarixida qanday voqea yuz berdi?

- A) Buyuk Britaniya Koreyaga savdo munosabatlarini o'rnatishni taklif qildi
B) Qrim xonligi Rossiya tarkibiga kiritildi
C) T.Modsi tokarlik dastgohini yaratdi
D) Koreyada "Qonunlarning buyuk to'plami" nomli hujjat tuzildi

32..... Yevropaning kuchli davlatlari Usmoniylar imperiyasining zaiflashib qolganidan foydalanib, uning mustamlaka hududlariga ko'z olaytira boshladilar.

- A) XVII asr oxiriga kelib
B) XVIII asr boshiga kelib
C) XVIII asr oxiriga kelib
D) XVIII asr o'rtasiga kelib

33. 1830-yilda Jazoirni bosib olgan davlatni aniqlang.

- A) Buyuk Britaniya B) Germaniya
C) Turkiya D) Fransiya

34. 1827-yilda Londonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida Turkiyaga qaram bo'lgan qaysi davlatga muxtoriyat huquqini ko'zda tutuvchi bitim imzolandi?

- A) Bolgariya B) Gretsiya
C) Albaniya D) Ruminiya

35. Turkiya va Misr o'rtasida hal qiluvchi jang nechanchi yilda bo'lib o'tdi?

- A) 1831-yilda B) 1827-yilda
C) 1832-yilda D) 1840-yilda

36. XIX asrning 70-yillarida Turkiyaning chet davlatlardan qarzi teng bo'ldi.

- A) 2,4 mlrd funt sterlingga
B) 4,4 mlrd frankka
C) 3,3 mlrd funt sterlingga
D) 2,4 mlrd frankka

37. Rossiya va Turkiya o'rtasida ro'y bergan "Qrim urushi" vaqtida rus podshosi nomini keltiring.

- A) Aleksandr I B) Aleksandr II
C) Nikolay I D) Nikolay II

38. Turkiya sultoniga qarshi bosh ko'targan Misr sultonini aniqlang.

- A) Faruk I B) Fuod I
C) Muhammad Ali D) Muhammad Ahmad

39. Rossiya va Turkiya o'rtasidagi Sharq urushi qachon boshlangan?

- A) 1829-yilda B) 1853-yilda
C) 1852-yilda D) 1856-yilda

40. Asosiy savdo yo'llarini 1649-yilda egallab oldi va bu qancha vaqt davom etdi?

- A) 50 yilcha B) 60 yilcha
C) 70 yilcha D) 80 yilcha

41. Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?

- A) Mir Mahmud B) Ahmadshoh
C) Sulton Husayn D) Mir Vaysxon

42. Quyida berilgan sanalarni to'g'ri javoblar bilan moslashtiring.

1. Qandahor viloyatida Eron bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi
 2. Eron shohi deb e'lon qilingan shaxs
 3. Eron afg'on bosqinchilaridan to'la ozod etilgan
 4. Nodir Quli qachon Eron shohi deb e'lon qilingan
 5. Nodirshoh tomonidan Afg'oniston qachon Eronga bo'ysundirilgan
- a) 1730-yilda, b) 1709-yilda c) Mir Mahmud, d) 1736-yilda, e) 1938-yilda
A) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d, 5-e
B) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d, 5-e
C) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d, 5-e
D) 1-b, 2-c, 3-a, 4-e, 5-d

43. 1747-yilda Afg'oniston shohi deb e'lon qilingan Ahmadshoh qaysi qabilaning sardori edi?

- A) balakazay
- B) abdali
- C) gilzoiy
- D) durroni

44. Durroniylar sulolasi nechanchi yilgacha Afg'oniston taxtini boshqaradi?

- A) 1747-yilgacha
- B) 1856-yilgacha
- C) 1839-yilgacha
- D) 1826-yilgacha

45. Afg'onistonda Barakzaylar sulolasining hukmronligi qachon o'rnatilgan?

- A) 1722-yilda
- B) 1842-yilda
- C) 1838-yilda
- D) 1826-yilda

46. 1838-yilda Afg'onistonga hujum qilib, Qobulni egalladi va taxtga o'tkazilgan Shuju qaysi sulolaning vakili edi?

- A) Barakzaylar
- B) Abdalilar
- C) Durroniylar
- D) Zohiriylar

47. 1842-yilda

- A) Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi
- B) Afg'oniston Buyuk Britaniya tomonidan bosib olindi
- C) Durroniylar sulolasi qaytadan hokimiyat tepasiga chiqdi
- D) Fathxon taxtga o'tirdi

48. "Ost-Indiya" kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini o'ziga bo'sundirgan yilda

- A) Xiva xonligiga Qo'qon xonligi elchilari tashrif buyurdi
- B) Abulg'oziyxon hozirgi Urganch shahriga asos soldi
- C) Qo'qon taxtiga Erdonabiy o'tirdi
- D) Xiva shahrini dushmandan himoyalash maqsadida Olloqulixon mudofa devor bilan o'rattirdi

49. Qaysi yilda Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma tuzilgan?

- A) 1847-yilda
- B) 1842-yilda
- C) 1857-yilda
- D) 1845-yilda

50. "Durri-Duron" so'zining ma'nosi nima?

- A) "oq marvarid"
- B) "javohirlar javohiri"
- C) "afg'on javohiri"
- D) "durlar xazinasi"

51. 1870-yilga kelganda Afg'oniston qanday siyosiy holatda edi?

- A) Angliya mustamlakasiga aylandi
- B) mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi
- C) Eronga tobe bo'lib qoldi
- D) Rossiya himoyasiga o'tganligini e'lon qildi

52. Eron va Rossiya o'rtasida imzolangan Turkmanchoy shartnomasida nechanchi yillarda bo'lib o'tgan urushning taqdiri hal qilinadi?

- A) 1826-1828-yillarda
- B) 1811-1813-yillarda
- C) 1777-1778-yillarda
- D) 1841-1842-yillarda

53. XIX asr o'rtalarida Erondagi qaysi omillar mamlakatning mehnatkash xalq orasida norozilik keltirib chiqarishga sabab bo'ldi. Natijada "Bobiyar qo'zg'oloni" ro'y berdi.

Bu qo'zg'olonga turtki bo'lgan sabablarni ko'rsating?

1. Davlat apparatidagi mansablarni sotish nihoyatda kuchaydi, 2. Davlat apparatidagi mansablarni sotib olish nihoyatda kuchaydi, 3. Viloyat hokimlari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi, 4. Katta-katta yer mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi, 5. Eronning Hirotga hujum qilishi, 6. Mamlakatni Respublika deb e'lon qilinishi

- A) 1, 2, 3, 5
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 3, 4, 6
- D) 2, 3, 4, 5

54. "Bobiyar qo'zg'oloni"da -

1. Qo'zg'olon shoh tuzumi hamda zulmiga qaratilgan edi, 2. Yer egaligiga qarshi qaratilgan edi, 3. Qo'zg'olonda hunarmandlar, mayda savdogarlar qatnashdi, 4. Qo'zg'olonda quyi darajadagi ruhoniylar ham qatnashdi, 5. shahar kambag'allari va shahar atrofida yashovchi dehqonlar ham ishtirok etdi,

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4
- C) 1, 3, 4
- D) 2, 3, 4, 5

55. Bobiylik ta'limotining asoschisi quyidagilar-dan qaysi biri edi?

- A) Muhammad Ahmad
- B) Muzaffariddin
- C) Muhammad Ali
- D) Said Ali Muhammad

56. "Bobiyar qo'zg'oloni" nechanchi yilgacha davom etdi?

- A) 1849-yilning oxirigacha
- B) 1850 -yilning o'rtalarigacha
- C) 1860-yilning boshlarigacha
- D) 1850-yilning oxirigacha

57. Bobiylar qo'zg'olonining rahbariga qanday jazo turi qo'llanildi?

- A) mamlakatdan haydab yuborildi
- B) osib o'ldirildi
- C) qatl etildi
- D) savalab o'ldirildi

58. Quyida berilgan so'zlarni o'z ma'nosiga ko'ra moslashtiring.

1. Eshik, darvoza, 2. Bosh vazir, 3. Moliya va ichki ishlar vaziri, 4. Saroy bosh tabibi, 5. Vaqf milklarini tasarruf etuvchi, 6. Elchilarni qabul qiluvchi, 7. Otaliq

a) Bob (arabcha), b) Sadri a'zam, c) Amin ad-davla, d) Hakimboshi

- A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-a, 5-b, 3-c, 7-d
- C) 1-a, 4-b, 5-c, 7-d D) 1-a, 5-b, 6-c, 4-d

59. 1857-yilda Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasiga ko'ra

1. Eron Hirot va Afg'onistonning boshqa hududlariga bo'lgan, da'vosidan butunlay voz kechdi, 2. Eron - Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi, 3. Parij Tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'sirini sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi, 4. Eron - Hirot o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi, 5. Eron bozorlarida Buyuk Britaniya mahsulotiga boj tovarlari narxi kamaytirildi

- A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 3 C) 1, 3, 4 D) 2, 3, 4, 5

60. Portugaliya mustamlakalari bo'lgan qul savdosining muhim bazalari edi?

- A) Janubiy Afrika va Sudan
- B) Angola va Mozambik
- C) Efiopiya va G'arbiy Sudan
- D) Madagaskar va Angola

61. Qachondan boshlab Afrika qit'asining ichkari qismi ham mustamlakaga aylantirila boshlandi?

- A) XIX asr 50-yillaridan
- B) XIX asr 60-yillaridan
- C) XIX asr 70-yillaridan

D) XIX asr 90-yillaridan

62. XIX asr oxiriga kelib Afrika qit'asining qancha qismi mustamlakachilar qo'liga o'tdi?

- A) 90 foizi B) 80 foizi
- C) 60 foizi D) 70 foizi

63. AQShda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakati qachon boshlangan?

- A) 1821-yildan B) 1830-yildan
- C) 1816-yildan D) 1855-yildan

64. XIX asrda ham Efiopiyada

- A) qulchilik munosabatlari hukm surardi
- B) inglizlar o'z hukmronligini o'rnatgan edilar
- C) sanoat inqilobi yuz berdi
- D) o'rta asr munosabatlari hukm surardi

65. Janubiy Afrikadagi Kap koloniyasi qachon Buyuk Britaniya tomonidan bosib olingan?

- A) XIX asr o'rtalarida
- B) XIX asr boshlarida
- C) XVIII asr oxirlarida
- D) XIX asr oxirlarida

66. Kap koloniyasining aholisi qanday nom bilan atalgan?

- A) zuluslar B) namalar
- C) burlar D) gererolar

67. Nechanchi yilda Jazoirda Abdulqodir qo'shini qurshab olindi va tor-mor etildi?

- A) 1847- yilda B) 1848- yilda
- C) 1849- yilda D) 1830- yilda

6-mavzu: Ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar

1. XIX asrning 70-yillarigacha ish kunining uzunligi Angliya va AQSHda necha soatni tashkil qiladi?

- A) 10 soatni B) 10-12 soatni
- C) 12-14 soatni D) 14-16 soatni

2. Konservatizm ta'limoti qachon paydo bo'ladi?

- A) XVII asrda
- B) XIX asrning 30-yillarida
- C) XVIII asrda
- D) XIX asrning 50-yillarida

3. Konservatizmning ko'zga ko'ringan arboblari qachon ko'rsatildi?

- A) Edmund Berk va Jozef de Mester
- B) Edmunt Berk va Jon Lok
- C) Sharl Monteskyu va Robert Ouen
- D) Robert Ouen va Sen-Simon

4. Liberalizm vakillari qanday jamiyat qurish g'oyasini ilgari suradilar?

1.shaxs erkinligining zaruriy shart ekanligi,
2.erkin bozor, erkin raqobat erkin raqobat va erkin tadbirkorlik, teng imkoniyatlar qaror topishi lozimligini, 3.huquqiy davlat g'oyasi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, bag'rikenglik va ozchilik huquqlarning himoyalaniish zarurligini:(vijdon, so'z, yig'ilish,lar, turli uyushmalar va partiyalar tuzish) 4.umumiy saylov huquqi joriy etilishini

- A) 1, 2
- B) 1, 3,4
- C) 1, 4
- D) 1, 2, 3, 4

5. mavjud sotsialistik g'oyalar o'rniga kommunistik jamiyat qurish haqidagi yangi jamiyat qurish haqidagi ta'limot vujudga keldi?

- A) XIX asr boshlarida
- B) XIX asr o'rtalarida
- C) XIX asr oxirida
- D) XVIII asr oxirida

6. Kommunistik g'oya tarafdorlari kimlar edi?

- A) K. Marks va F. Engelslar
- B) F. Engels va Robert Ouenlar
- C) Sh. Fure va A. Gersenlar
- D) A. Gersen va Sen-Simonlar

7.Quyidagilardan qaysilari XIX asrda utopik sotsializmni rivojlantirishda muhim o'rin tutgan edilar?

- A) Robert Ouen, Tomas Mor
- B) T. Kampanelli, Sharl Fure
- C) Sen-Simon, Robert Ouen va Sharl Fury
- D) Tomas Mor, Sharl Fure va Sharl Montekyu

8. Liberalizm lotincha so'zdan olingan bo'lib, nima degan ma'noni bildiradi?

- A) ozodlikka mansub
- B) saqlab qolmoq
- C) qo'riqlamoq
- D) putur etkazmaslik

7-mavzu:XVII - XIX asrning 60-yillarida ilmfan, adabiyot va san'at

1. Mashhur ingliz olimi I. Nyuton qaysi yillarda yashagan?

- A) 1643-1724- yillarda
- B) 1643-1725- yillarda
- C) 1646-1716- yillarda
- D) 1642-1727- yillarda

2. G. V. Leybnis necha yoshida universitet talabasi bo'ldi?

- A) 20 yoshida
- B) 25 yoshida
- C) 15 yoshida
- D) 19 yoshda

3."Umumiy, zaruriy bilimlarning asosi faqat aql bo'lishi mumkin", - deb yozilgan fikrlar kimga tegishli?

- A) I. Nyutonga
- B) V. Leybnitsga
- C) E. Jennerga
- D) Yu. Mayerga

4.Quyida keltirilgan jummalarni qaysi birlari hayot faoliyati va ijod mahsuli bo'lib xizmat qiladi?

- 1.U faylasuf, matematik va tarixchi olim bo'lib yetishdi,
 - 2.Berlin Fanlar akademiyasining birinchi prezideni etib saylandi,
 - 3.1680-yilda Berlin Fanlar akademiyasiga asos soldi,
 4. U tarixchi, notiq, mexanik, kimyogar, mineralog, rassom, va shoir edi,
 5. Katta sonlarni hisoblash mashinasini yaratdi,
 6. Matematikada defferensial va integral hisoblashni kashf etdi,
 7. Yangi fan - fizikaviy kimyo faniga asos soldi
- A) 1, 3, 5, 7
 - B) 2, 4, 6, 7
 - C) 1, 2, 3, 4, 6
 - D) 1, 2, 3, 4, 5

5. Nechanchi asrda golland olimi A.Livenguk 300 marta kattalashib ko'rsatadigan mikraskopni yaratdi?

- A) XVIII asrda
- B) XIX asr o'rtalarida
- C) XVII asrda
- D) XVI asrda

6. Chechakka qarshi emlash usulini kim kashf etgan?

- A) A. Levenguk
- B) Ch. Darvin
- C) R. Kox
- D) E. Jenner

7. Chechakka qarshi emlash usuli nechanchi asrda kashf etilgan?

- A) XVII asrda
- B) XIX asrda

- C) XVIII asrda D) XVII asr boshlarida
 8. 1840-yilda qurilgan temir yo'llar uzunligi ,
 1870-yilga kelib, qancha kmga o'sdi ?
 A) 200000 kmga B) 198000 kmga
 C) 192300 kmga D) 188400 kmga

9. Qachondan boshlab g'ildirakli poroxodlar okean orqali Hindiston va Amerikaga qatnay boshladi?
 A) XIX asrning 50-60-yillaridan
 B) XIX asr 30-yillarining oxiridan
 C) XIX asrning 20-yillaridan
 D) XIX asr 70-yillari oxiridan

10. Dunyoda qachonga kelib bug' mashinalari bilan harakatga keltiriladigan g'ildirakli daryo poroxodlaridan keng foydalanila boshlandi?
 A) XIX asrning 50-yillariga kelib
 B) XIX asr 40-yillariga kelib
 C) XIX asrning 20- yillariga kelib
 D) XIX asr 70-yillariga kelib

11. XIX asrning 50-60 yillarida
 1.G'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rnini paroxodlarga bo'shatib bera boshladi, 2.Bora-bora g'ildiraklar o'rnini paroxodlar o'rnini eshkak vintlar egalladi, 3. Aloqa vositalari ham takomillashtirildi, 4.Elektir simli telegraf kashf etildi, 5.Morze alifbosi ixtiro qilindi va harf bosuvchi qurilmalar yaratildi
 A) 1, 3, 5 B) 2, 4, 5
 C) 1, 2, 3, 4 D) 1, 3, 4, 5

12. quriqlikdagi telegraf liniyalaridan tashqari suvosti kabellari ham yotqizila boshladi.
 A) XIX asrning boshlarida
 B) XIX asrning o'rtalarida
 C) XVIII asrning ikkinchi yarmida
 D) XVII asrning oxirlarida

- 13.Akademik so'zi qaysi tildan olingan?
 A) yunoncha B) nemischa
 C) inglizcha D) fransuzcha

14. Buyuk Britaniyadan Amerikaga Anlantika okeani tubi orqali dastlabki telegraf kabeli qachon o'tqazilgan?
 A) XIX asr 40-yillarida
 B) XIX asr 20-yillarida
 C) XIX asr 60-yillari oxirida
 D) XIX asr 70-yillarida

- 15.D. I. Mendeleyev tomonidan elementlarning davriy tizimi qachon yaratilgan?
 A) 1861- yilda B) 1854- yilda
 C) 1856- yilda D) 1869- yilda

16. Quyida XIX asrda ijod qilgan yozuvchilarning nomlari va yashagan yillari keltirilgan. Javoblarni o'z o'rniga ko'ra moslashtiring.
 1. Daniel Defo, 2. J.Svift, 3. P.Bomarshe, 4. F.Shiller, 5. I. Gyote, 6. Onore de Balzak, 7. A. S. Pushkin
 a) 1667-1745 –yillar, b) 1749-1832-yillar, c) 1660-1731-yillar, d) 1799-1850-yillar e) 1759-1805-yillar, f) 1799-1837-yillar, j) 1732-1799-yillar
 A) 1-c, 2-a, 3-j, 4-e, 5-b, 6-d, 7-f
 B) 1-b, 2-a, 3-j, 4-e, 5-c, 6-d, 7-f
 C) 1-c, 2-d, 3-j, 4-e, 5-b, 6-a, 7-f
 D) 1-f, 2-a, 3-j, 4-b, 5-e, 6-d, 7-c

17. Asar mualliflari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 1. Daniel Defo, 2. J.Svift, 3. P.Bomarshe, 4. F. Shiller, 5. I. Gyote, 6. Onore de Balzak
 a) "Figaroning uylanishi"
 b) "Makr va muhabbat"
 c) "Robinson Kruzoning hayoti va sarguzasht lari"
 d) "Gulliverning sayohati"
 e) "Insoniy komediya"
 f) "Faust"
 A) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b, 5-f, 6-e
 B) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b, 5-f, 6-e
 C) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b, 5-f, 6-e
 D) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d, 5-f, 6-e

18. "Gulliverning sayohati" nomli roman qachon bosmadan chiqdi?
 A) 1726-yilda B) 1747-yilda
 C) 1714-yilda D) 1756-yilda

19. A. S. Pushkin Rossiyaning qaysi shahrida tug'ilgan?
 A) Peterburg B) Orenburg
 C) Moskva D) Tula

20. "Gulliverning sayohati" romanida muallif "liliput" timsolida nimani aks ettrishga harakat qilgan?
 A) Ingliz qashshoqlarini
 B) Parlament hokimiyatini

- C) Mustamlaka o'lkalar aholisini
D) Cheklangan monarxiyani

21. Bu asar jahon adabiyotidagi shoh asarlardan biri hisoblanib, shoir bu asarni 60 yil davomida yaratgan. Bu asarning muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Daniel Defo B) I. Gyote
C) J.Svift D) A. S. Pushkin

22. U "dunyo zo'rlari"ning kirdikorlarini masxara qilib hazillashadi. Jahldorlardan qo'rqmaydi. Qashshoq bo'lsada, o'zining insoniy qadrini sotmaydi. Qaysi yozuvchining qahramoni yuqorida keltirilgan fazilatlar sohibi hisoblanadi?

- A) Daniel Defo B) I. Gyote
C) J.Svift D) P.Bomarshe

23. "Robinson Kruzoning hayoti va sarguzashtlari" asaridagi dengizchining kimsasiz oroldagi sarguzashtlari yozuvchining qalamida g'aroyib sarguzasht bayoniga aylangan. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

- A) 2 yilga yaqin, 18 yillik
B) 3 yildan ortiq, 28 yillik
C) 4 yilga yaqin, 28 yillik
D) 3 yilga yaqin, 18 yillik

24. Mashhur nemis kompozitori I.Bax qaysi yillarda yashab ijod qilgan?

- A) 1761-1825 yillarda
B) 1685-1750 yillarda
C) 1756-1814 yillarda
D) 1745-1805 yillarda

25. Quyidagi qaysi bastakorni zamondoshlar "XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi" deb atashgan?

- A) L. Betxovenni B) V. Motsartni
C) I. Baxni D) I. Gyoteni

26. Nemis bastakori L. Betxoven qaysi yillarda yashagan?

- A) 1761-1825- yillarda
B) 1770-1828- yillarda
C) 1756-1814- yillarda
D) 1745-1805- yillarda

27. Mashhur bastakor V. Motsart necha yoshidan boshlab musiqa o'rgana boshlagan?

- A) 3 yoshidan B) 5 yoshidan
C) 12 yoshidan D) 14 yoshidan

28. V. Motsart necha yoshida Italiyadagi eng obro'li musiqa akademiyasining a'zosi etib saylanadi?

- A) 19 yoshida B) 12 yoshida
C) 14 yoshida D) 15 yoshida

29. V. Motsart qaysi yillarda yashagan?

- A) 1761-1825- yillarda
B) 1756-1791- yillarda
C) 1756-1810 - yillarda
D) 1745-1800- yillarda

30. A.S. Pushkinni duelda o'ldirgan J. Dantes qaysi davlat elchisining o'g'li edi?

- A) Angliya B) Fransiya
C) Gollandiya D) Germaniya

31. "Matvey aytgan uqubatlar " nomli musiqiy asarning muallifi nomini ko'rsating?

- A) V. Motsart B) L.Betxoven
C) I. Bax D) F.Shopen

32. Motsart o'zining birinchi konsertini necha yoshida yozadi?

- A) 6 yoshida B) 5 yoshida
C) 12 yoshida D) 11 yoshida

33. Motsartning so'nggi asari qanday nomlanadi?

- A) "Matveyning uqubatlari" B) "Olam"
C) "Sokinlik" D) "Inson"

**JAHON TARIXINING XIX ASR 70-YILLARIDAN
1918-YILGACHA BO'LGAN DAVRI
IV BO'LIM. XIX ASR OXIRI –XX ASR BOSHLARIDA**

1-mavzu: Dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manzarasi

1. Qachonga kelib kapitalizm taraqqiyotida yangi bosqich – monopolistik kapitalizm deb ataluvchi bosqich qaror topdi?
A) XVIII asr o'rtalaridan XVIII asr oxirigacha
B) XIX asr o'rtalaridan XIX asr oxirigacha
C) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida
D) XX asr boshlaridan XX asr o'rtalarigacha
2. 1893-yilda Germaniyada tashkil topgan ko'mir sindikati mamlakatda qazib olinadigan va sotiladigan ko'mirning asosiy qismini o'z qo'lida to'plagan.
A) Rokfeller B) Doych korporeyshn
C) Morgan D) Reyn-Vestfaliya
3. XIX asr oxirida Germaniyada monopoliyalari soni qancha bo'lgan?
A) 250 tadan ortiq B) 150 tadan ortiq
C) 200 taga yaqin D) 100 taga yaqin
4. XIX asr oxirida AQSH da qancha monopoliyalari faoliyat ko'rsatgan?
A) 125 ta B) 150 ta
C) 185 ta D) 220 ta
5. XIX asr oxirida qanday jarayon bank faoliyatida kapitalning markazlashuviga olib keldi?
A) ishlab chiqarishning markazlashuvi va sanoatning monopoliyalashuvi
B) iqtisodiyotning markazlashuvi va agrar islohotlar
C) sanoatning markazlashuvi va oligarxiyaning vujudga kelishi
D) chetga kapital chiqarilishi va bank-sanoat imperiyalarining paydo bo'lishi
6. XX asr boshlarida Fransiya va AQSH da nechtdan moliyaviy markazlar, bank-gigantlar (yirik banklar) vujudga keldi?
A) Fransiya bitta, AQSH da ikkita
B) AQSH da to'rtta, Fransiya da ikkita
C) Fransiya uchta, AQSH da ikkita
D) AQSH da uchta, Fransiya da to'rtta
7. Qanday kapitalning birlashib ketishi kapitalning yangi shaklini – moliya kapitalini vujudga keltirdi?
A) agrar kapitali bilan yoqilg'i kapitalining
B) bank kapitali bilan sanoat kapitalining
C) sanoat kapitali bilan qishloq xo'jaligi kapitalining
D) yengil sanoat kapitali bilan yoqilg'i sanoati kapitalining
8. AQSH da mamlakatning iqtisodiy hayotini qancha oilaning bank-sanoat imperiyalari nazorat qilib turardi?
A) 40 ta B) 50 ta C) 60 ta D) 70 ta
9. XIX asrning oxirida quyidagi qaysi "uchlik" ajralib turar edi?
1. Morgan 2. Kornegi 3. Rokfeller
4. Shmidt 5. Karl
a) neft; b) moliya; c) po'lat;
d) ko'mir; e) kauchuk
A) 1-c; 2-d; 3-e B) 1-b; 2-c; 3-a
C) 1-a; 2-e; 4-c D) 2-a; 3-d; 5-e
10. Qancha oila Fransiya moliyaviy qudratining timsoli fransuz bankining yirik omonotchilari bo'lgan?
A) "80 oila" B) "140 oila"
C) "200 oila" D) "230 oila"
11. Morganning po'lat tresti po'latning necha foizini berar edi?
A) 55 foizini B) 62 foizini
C) 66 foizini D) 74 foizini
12. Quyidagi mamlakatlarning 1914-yilda chetga kapital chiqarishi necha milliard rubldan bo'lganligi to'g'risidagi to'g'ri javobni toping?
1. Buyuk Britaniya 2. Fransiya 3. Germaniya 4. AQSH 5. Rossiya 6. Yaponiya
a) 22,1 b) 36,7 c) 0,4 d) 5,3 e) 0,5
j) 16,6
A) 1-b; 2-a; 3-j; 4-d; 5-e; 6-c
B) 1-a; 2-d; 3-b; 4-j; 5-c; 6-e
C) 1-c; 2-e; 3-d; 4-j; 5-a; 6-b
D) 1-d; 2-j; 3-b; 4-a; 5-e; 6-c

13. 1875-1900-yillarda Germaniyaning chet ellarda joylashtirgan kapitali necha barobarga oshgan?

- A) 2,25 barobarga B) 4,5 barobarga
C) 7,5 barobarga D) 9,2 barobarga

14. 1910-yilda xalqaro monopoliyalarning soni qanchaga yetgan?

- A) 75 taga B) 86 taga
C) 94 taga D) 100 taga

15. 1907-yilda quyidagi qaysi monopoliyalar o'rtasida jahon elektr bozorini bo'lib olish va o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida shartnoma tuzilgan?

- A) Kornegining "Umumiy elektr kompaniyasi"
B) Morganning "Katta elektr trest"
C) "Umumiy elektr kompaniyasi" (AQSH) bilan "Umumiy elektr jamiyati" (Germaniya)
D) Buyuk elektr jamiyati (Buyuk Britaniya) bilan "Katta elektr kompaniyasi" (AQSH)

16. Quyidagi qaysi davlatlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida juda katta mustamlakalarga ega bo'lib olgan edi?

- A) Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya
B) AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniya
C) Italiya, Germaniya va AQSH
D) Usmonlilar imperiyasi, Yaponiya va Rossiya

17. 1900-1913- yillarda industrial davlatlar chetga chiqargan kapitalining hajmi necha barobar oshgan edi?

- A) ikki barobar B) uch barobar
C) to'rt barobar D) besh barobar

18. Qaysi davrga kelib AQSH Gavayi orollarini anneksiya qildi?

- A) XVIII asr oxirida B) XIX asr boshlarida
C) XIX asr oxirida D) XX asr boshlarida

19. XIX asr oxirida yirik davlatlar tomonidan bosib olingan mustamlakalarning yer maydoni qancha mln.kv.km. hisobida bo'lganligini aniqlang?

1. AQSH 2. Fransiya 3. Buyuk Britaniya
4. Germaniya
a) 33,5 b) 10,6 c) 2,9 d) 0,3
A) 1-a; 2-b; 3-c; 4-d B) 1-d; 2-b; 3-a; 4-c
C) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c D) 1-b; 2-c; 3-d; 4-a

20. XIX asr oxirida yirik davlatlar tomonidan bosib olingan mustamlakalar aholisi quyida davlatlar bo'yicha qancha kishidan bo'lgan?

1. AQSH; 2. Fransiya; 3. Buyuk Britaniya
4. Germaniya
a) 393,5 mln kishi b) 10,6 mln kishi
c) 12,5 mln kishi d) 9,7 mln kishi
A) 1-d; 2-b; 3-a; 4-c B) 1-b; 2-d; 3-a; 4-c
C) 1-a; 2-c; 3-d; 4-c D) 1-d; 2-b; 3-c; 4-a

21. XIX asrning oxiriga kelib, Germaniya iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Yevropada...., dunyoda.... o'rinni egallab olgan edi.

- A) birinchi, AQSHdan keyin uchinchi
B) ikkinchi, Rossiyadan keyin ikkinchi
C) birinchi, AQSHdan keyin ikkinchi
D) birinchi, Buyuk Britaniyadan keyin ikkinchi

22. Monopoliya yunoncha so'z bo'lib ... degan ma'noni anglatadi?

- A) bir turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar birlashmasi
B) iqtisodiyotning bir sohasidagi tanho hukmronlik
C) manfaatlar umumiyligi asosida uyushgan korxonalarining yirik birlashmasi
D) bir tarmoqdagi mustaqil kompaniyalar

23. AQSH da kimlarni "Amerikaning tojsiz qirollari" deb atashgan?

- A) bankirlarni B) sanoatchilarni
C) monopoliyachilarni D) fermerlarni

24. "Manfaatlar umumiyligi asosida uyushgan korxonalarining yirik birlashmasi" iborasini quyidagi qaysi tarixiy atama anglatadi?

- A) oligarxiya B) kartel C) konsern D) sindikat

25. 1850-yillarda Parij aholisi qancha bo'lgan?

- A) bir million B) bir yarim million
C) ikki million D) uch million

26. Parij 1853-yildan boshlab qancha vaqt davomida qurilish maydoniga aylandi?

- A) 15 yil B) 20 yil C) 25 yil D) 30 yil

27. Qaysi davrga kelib, industrial davlatlarda aholining qariyb yarmi shaharlarda to'plandi?

- A) XVIII asr oxirlariga kelib
B) XIX asr boshlariga kelib
C) XIX asr o'rtalariga kelib
D) XIX asr oxirlariga kelib

28. 1880-yilga kelganda Parijda qancha aholi yashardi?
 A) bir million B) ikki million
 C) uch million D) to'rt million
29. XIX asr o'rtalarida Buyuk Britaniya parlamenti jamoalar palatasining 652 a'zosidan... mulkdorlari edi.
 A) 450 tasi sanoat B) 465 tasi trestlar
 C) 489 tasi yer D) 476 tasi sindikatlar
30. Qaysi yillarda Buyuk Britaniya vazirlarining uchdan ikki qismi elita bilim yurtlari bitiruvchilari edi?
 A) 1900-1910-yillarda B) 1903-1908-yillarda
 C) 1906-1916-yillarda D) 1910-1917-yillarda
31. XIX asrda jamiyat hayotining "o'rta qatlami"ni qaysi kasb egalari tashkil etgan?
 A) muhandislar, o'qituvchilar, ishchilar, huquqshunoslar
 B) shifokorlar, ofitserlar, jurnalistlar, muhandislar
 C) muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, ofitserlar, huquqshunoslar
 D) ofitserlar, sotuvchilar, shifokorlar, muhandislar, ishchilar
32. Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSH da XIX asrning 70-yillarida sanoat ishchilari qancha bo'lgan?
 A) 8-10 mln B) 10-12 mln
 C) 12-13 mln D) 13-15 mln
33. XX asrning boshida qaysi davlat sanoat ishchilarining soni jihatidan dunyoda birinchi o'rinni egallagan?
 A) Germaniya B) Rossiya
 C) AQSH D) Fransiya
34. XIX asrning 70-yillarida qishloq xo'jaligi dagi ishchilar bilan hisoblaganda Buyuk Britaniya, Fransiya va AQSHda ishchilar soni qanchani tashkil etadi?
 A) 20 mln kishini B) 25 mln kishini
 C) 30 mln kishini D) 35 mln kishini
35. Germaniyada 1907-yilda sanoat ishchilarining soni qancha edi?
 A) 6,8 mln B) 8,6 mln
 C) 10, 2 mln D) 12,3 mln
36. XX asr boshlarida Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ishchilar soni qancha kishini tashkil qilgan?
 A) 15 mln B) 25 mln
 C) 34 mln D) 40 mln
37. "Fabrika ayollari " asosan necha yoshli qizlardan iborat bo'lgan?
 A) 12-13 yoshli B) 13-14 yoshli
 C) 15-16 yoshli D) 16-17 yoshli
38. XX asr boshlarida qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi, transport va boshqa sohalardagi ishchilar birgalikda qancha kishiga yaqinlashgan?
 A) 50 mln kishiga B) 65 mln kishiga
 C) 75 mln kishiga D) 80 mln kishiga
39. Qachonga kelib, xotin-qizlar ozodligi va mustaqilligi g'oyalari, ularning teng huquqlilik uchun kurashlari yangi sivilizatsiya jamiyatining belgilaridan biri bo'lib qoldi?
 A) XIX asr o'rtalariga kelib
 B) XIX asr oxirlariga kelib
 C) XIX asr 70-yillariga kelib
 D) XX asr boshlariga kelib
40. Qaysi davrda ish kunining uzunligi industrial davlatlarda 10-16 soatni tashkil etgan?
 A) XIX asrning 40-50-yillarigacha
 B) XIX asrning 70-yillarigacha
 C) XX asrning 10-yillarigacha
 D) XX asrning 20-yillarigacha
41. XX asrning boshlarida malakali ishchilarning salmog'i Buyuk Britaniya mashinasozligida ishchilar umumiy sonidan qancha foizini tashkil qiladi?
 A) 50-55 foizni B) 55-60 foizni
 C) 70-75 foizni D) 65-70 foizni
42. AQSH da XX asr boshlarida umumiy sanoat ishchilarining qancha qismi malakali ishchilar edi?
 A) 2/3 qismi B) 2/4 qismi
 C) 3/5 qismi D) 2/5 qismi
43. "Migratsiya" atamasini quyidagi qaysi ibora ifodalaydi?
 A) jamiyat hayotida shaharlar rolining va shahar aholisi salmog'ining ortib borishi

- B) u yoki bu davlat aholisining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishi
- C) bir davlatdan boshqa bir davlatga doimiy yoki uzoq vaqt yashash uchun ko'chib kelgan shaxs
- D) sanoat, xususan yirik sanoatni anglatuvchi atama

2-mavzu: G'arbiy Yevropa davlatlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida

1. Qachondan boshlab Fransiya imperatori Napoleon III mavqeyiga putur yetdi?
 - A) XIX asrning 40-yillari o'rtalaridan
 - B) XIX asrning 50-yillari boshlaridan
 - C) XIX asrning 60-yillari ikkinchi yarmidan
 - D) XIX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan
2. Fransiya hukmron doiralari ... Buyuk Britaniya – Fransiya savdo shartnomasidan ham norozi edi.
 - A) 1852-yildagi
 - B) 1860-yildagi
 - C) 1867-yildagi
 - D) 1872-yildagi
3. Fransiya – Prussiya urushining boshlanishiga nima bahona bo'ldi?
 - A) Fransiyani Germaniyaning birlashishiga qarshiligi
 - B) Prussiyani Italiya hududiga bostirib kirishi
 - C) Ispaniya taxtiga kimni o'tqazish masalasi
 - D) Prussiyani Fransiya chegaralarini buzib o'tishi
4. Qachon Ispaniyada inqilob yuz berdi?
 - A) 1864-yilda
 - B) 1866-yilda
 - C) 1862-yilda
 - D) 1868-yilda
5. Qachon Fransiya Prussiyaga qarshi urush e'lon qildi?
 - A) 1870-yil 17-iyulda
 - B) 1870-yil 27-sentabrda
 - C) 1870-yil 7-mayda
 - D) 1870-yil 17-avgustda
6. Qachon tarkibida Napoleon III ham bo'lgan Fransiya qo'shinlari Sedan qal'asi yonida qurshab olindi?
 - A) 1870-yil 10-avgust kuni
 - B) 1870-yil 27-avgust kuni
 - C) 1870-yil 1-sentabr kuni
 - D) 1870-yil 17-sentabr kuni

7. Fransiya – Prussiya urushida Fransiya qo'shini nemislarning qancha qo'shini orasidan qurshovni yorib o'ta olmadi?
 - A) 80 ming kishilik
 - B) 120 ming kishilik
 - C) 140 ming kishilik
 - D) 160 ming kishilik

8. Ispaniyada 1868-yilda yuz bergan inqilob vaqtida qirolicha Izabella II qayerga qochib ketishga majbur bo'ladi?
 - A) Germaniyaga
 - B) Fransiyaga
 - C) Angliyaga
 - D) Rossiyaga

9. Noiloj qolgan Napoleon III 2-sentabr kuni oq bayroq ko'tarishga buyruq berishga, ... Prussiya qiroliga jo'natishga majbur bo'ldi.
 - A) Fransiyaning mag'lubiyati to'g'risidagi akti
 - B) Fransiyaning bayrog'ini
 - C) o'zning qilichini
 - D) 5 mlrd frank miqdorida kontributsiya to'lash haqidagi akti

10. Fransiyaning qancha kishilik ikkinchi qo'shini ham Mets qal'asida qurshovga tushib qoldi?
 - A) 60 ming kishilik
 - B) 75 ming kishilik
 - C) 85 ming kishilik
 - D) 100 ming kishilik

11. "Depesha" so'zining ma'nosini quyidagi qaysi ibora ifodalaydi?
 - A) ishonchsiz xabar
 - B) shoshilinch xabar
 - C) bo'hton xabar
 - D) tahqirlovchi xabar

12. Vaterlo qishlog'i hozirgi qaysi davlat hududida joylashgan?
 - A) Fransiya
 - B) Germaniya
 - C) Shvetsiya
 - D) Belgiya

13. Qachon mag'lubiyat haqidagi xabarni eshitgan Parij aholisi qo'zg'olon ko'tardi?
 - A) 1870-yilning 20-iyunida
 - B) 1870-yilning 27-avgustida
 - C) 1870-yilning 3-sentabrda
 - D) 1870-yilning 17-sentabrda

14. Fransiyaning Qonun chiqaruvchi Korpusi kim boshchiligida Muvaqqat milliy-mudofaa hukumatini tuzdi?
 - A) Bosh vazir Tyer
 - B) general Troshyu
 - C) general Makoshyu
 - D) Napalon III

15. Qachon Parij Prussiya qo'shini tomonidan qurshab olindi va Muvaqqat hukumat noiloj taslim bo'ldi?

- A) 4-sentabr kuni B) 16-sentabr kuni
C) 19-sentabr kuni D) 26-sentabr kuni

16. Urushdagi g'alaba Prussiyaga qanday imkonni berdi?

- A) Fransiya tovarlarini sotish va 5 ming frank kontributsiya undirish imkonini
B) o'z qo'l ostida butun Germaniyani yagona davlatga birlashtirish imkonini
C) Yevropa territoriyasida o'z hukmronligini o'rnatish imkonini
D) Dengizda o'z kemalarini emin-erkin suzish imkonini

17. ... Fransiyada Milliy Majlisga shoshilinch saylov o'tkazildi va Tyer boshchiligida yangi hukumat tuzildi?

- A) 1871-yil yanvar oyida
B) 1871-yil fevral oyida
C) 1871-yil mart oyida
D) 1871-yil may oyida

18. Fransiyaning Versal saroyida Germaniya – imperiya, Prussiya qiroli Vilgelm I esa Germaniya imperatori deb e'lon qilingan vaqtda imperiya kansleri lavozimini kim egallagan edi?

- A) general Troshyu B) Otto fon Bismark
C) qo'mondon Nivel D) monarx V.Kapp

19. Tyer boshchiligidagi hukumat qanday shartnomani imzolashga muvaffaq bo'ldi?

- A) ishchilarni maoshini oshirish to'g'risidagi
B) Milliy gvardiyani qurolsizlantirish shartnomasini
C) Fransiya – Germaniya tinchlik shartnomasini
D) Vilgelm I ni Germaniya imperatori deb tan olish haqidagi shartnomani

20. Qachon Fransiya hukumati qo'shinlari Milliy gvardiyaga hujum qildi?

- A) 8-mart kuni erta tongda
B) 18-mart kuni kechasi
C) 28-mart kuni kunduzi
D) 8-may kuni kechasi

21. Qachon Parij Kommunasiga saylov o'tkazildi?

- A) 18-mart kuni B) 20-mart kuni
C) 23-mart kuni D) 26-mart kuni

22. Kommuna Kengashi o'z a'zolaridan nechta komissiya (vazirlik) tashkil etdi?

- A) 6 ta B) 8 ta C) 10 ta D) 12 ta

23. Parij Kommunasi quyidagi qaysi ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirdi?

1. Majburiy va bepul ta'limni joriy etdi;
 2. Egalari tashlab ketgan korxonalar shu korxonada ishchilariga topshirildi
 3. Cherkov davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi
 4. Mehnatkashlarning uy-joy haqini to'lash muddatlari kechiktirildi
 5. Parijdan qochib ketgan Tyer hukumatini ta'qib qildi
 6. Ishsizlarni ish bilan ta'minlash idorasi tuzildi
 7. Xususiy mulk bo'lib kelgan temiryo'l idoralarini Kommuna o'z ixtiyoriga oldi va ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatdi
- A) 1,3,4,5,6,7 B) 1,2,4,5,6,7
C) 2,3,4,5,6,7 D) 1,2,3,4,6,7

24. Kommunani tor-mor etishda qaysi davlat Tyer hukumatiga yordam berdi?

- A) Buyuk Britaniya B) Germaniya
C) AQSh D) Rossiya

25. Bismark qancha fransuz askar va zobitlarini asirlikdan bo'shatib, ularni Tyer hukumati ixtiyoriga yubordi?

- A) 30 ming B) 35 ming
C) 40 ming D) 50 ming

26. Asirga olingan qancha kommunachi otib tashlandi?

- A) 20 mingdan ziyod B) 30 mingga yaqin
C) 40 mingga yaqin D) 45 ming atrofida

27. Parij Kommunasi tor-mor etilishi natijasida qancha kommunachi qamoqqa olindi?

- A) 30 mingga yaqin B) 40 mingdan ziyod
C) 50 mingga yaqin D) 60 ming atrofida

28. 1871-yil 10-may kuni Germaniyaning ... shahrida Fransiya-Germaniya sulh shartnomasi imzolandi.

- A) Berlin B) Myunxen
C) Bavariya D) Frankfurt

29. Fransiya-Germaniya sulh shartnomasiga ko'ra ...

- A) Fransiya Germaniyaga Reynning o'ng qirg'og'ini berdi
B) Fransiya Germaniyaga 5 mlrd tovon to'laydigan bo'ldi

- C) Germaniya Fransiya territoriyasida qo'shin saqlaydigan bo'ldi
D) 100 yilgacha urushmaslikka kelishdi

30. 1871-yil 10-may kuni Germaniya – Fransiya o'rtasidagi sulh shartnomasiga ko'ra Fransiya qanday shartlarni bajarishi kerak edi?

1. Fransiyaning Elzas va Lotaringia viloyatlari Germaniyaga berilishi kerak edi
 2. Fransiya Germaniyaga 5 mlrd frank tovon to'laydigan bo'ldi
 3. Tovon to'lanib bo'lguncha, Germaniya o'z qurolli kuchlarining bir qismini Fransiya hududida saqlab turadigan bo'ldi
 4. Fransiya Germaniyaga asirga tushgan 40 ming askari uchun tovon to'laydigan bo'ldi
 5. Fransiya 20 yilga dengizga kemalarini chiqarmaslik majburiyatini oldi
- A) 1,3,5 B) 2,3,5
C) 1,2,3 D) 3,4,5

31. Fransiya urushdan qancha zarar ko'rdi?

- A) 5 mlrd frank B) 8 mlrd frank
C) 11 mlrd frank D) 13 mlrd frank

32. Qachonga kelib Fransiya Germaniyaga tovon to'lab bo'ldi?

- A) 1873-yilda B) 1874-yilda
C) 1875-yilda D) 1876-yilda

33. 1875-yil Fransiyada...

- A) Germaniyaga tovon puli to'lab bo'ldi
B) Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi
C) Milliy Majlis tuzildi
D) Ikki palatali parlament tuzildi

34. Quyidagi qaysi qo'shiq Fransiyaning madhiyasi deb e'lon qilindi?

- A) "Salomeya" B) "Marselyeza"
C) "Gullar qo'shig'i" D) "Ozod Fransiya"

35. Quyidagi qaysi kun fransuz xalqining Milliy bayram kuni deb e'lon qilindi?

- A) 14-iyun B) 14-iyul
C) 14-avgust D) 14-sentabr

36. Qachon Fransiyada ta'lim to'g'risida qonun qabul qilindi?

- A) 1879-1880-yillarda B) 1880-1881-yillar
C) 1881-1882-yillarda D) 1882-1883-yillarda

37. XIX asrning 80-yillari boshida qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra Fransiyada necha yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy bepul ta'lim joriy etildi?

- A) 10 yoshgacha B) 13 yoshgacha
C) 11 yoshgacha D) 14 yoshgacha

38. Qachon Fransiyada kasaba uyushmalarining erkin faoliyatiga hamda ish tashlashga ruxsat etuvchi qonun qabul qilindi?

- A) 1880-yilda B) 1882-yilda
C) 1884-yilda D) 1886-yilda

39. Fransiyada majburiy ta'lim dasturida o'g'il bolalar uchun qaysi predmet majburiy deb belgilandi?

- A) matematika B) yengil atletika
C) geografiya D) gimnastika

40. Qachon Senatga bo'lgan saylovlarda respublikachilar qo'li baland keldi?

- A) 1874-yilgi B) 1876-yilgi
C) 1878-yilgi D) 1880-yilgi

41. Fransiyada anarxistlarning terrori natijasida qachon mamlakat prezidenti Sadi Karno ham o'ldirildi?

- A) 1890-yilda B) 1892-yilda
C) 1894-yilda D) 1896-yilda

42. Qachon A.Dreyfus to'la oqlandi?

- A) 1903-yilda B) 1905-yilda
C) 1904-yilda D) 1906-yilda

43. 1913-yilda Fransiya nima bo'yicha AQSh va Germaniyani ortda qoldirdi?

- A) temir rudasi qazib chiqarish bo'yicha
B) g'alla yetishtirish bo'yicha
C) kauchuk ishlab chiqarish bo'yicha
D) harbiy kemalar ishlab chiqarish bo'yicha

44. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiya sanoatida ishlayotgan aholining soni qancha foizga yetdi?

- A) 36 foizga B) 42 foizga
C) 48 foizga D) 53 foizga

45. XX asr boshlarida Fransiya chetga capital chiqarish bo'yicha qaysi davlatdan so'ng ikkinchi o'ringa chiqdi?

- A) AQSh dan B) Rossiyadan
C) Yaponiyadan D) Buyuk Britaniyadan

46. XX asr boshlarida Fransiya aholisining necha foizi qishloq xo'jaligida band edi?
A) 35 foizi B) 40 foizi C) 46 foizi D) 52 foizi
47. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiya eksportida qaysi mahsulot birinchi o'rinni egalladi?
A) vino B) ip-gazlama
C) shoyi gazlama D) jun
48. 1914-yilga kelganda Fransiya quyidagi mamlakatlarga qanchadan capital chiqardi?
1. Rossiya 2. Buyuk Britaniya
3. AQSh 4. Janubiy Afrika
a) 5 mlrd b) 6 mlrd c) 13 mlrd d) 5 mlrd
A) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c B) 1-c; 2-a; 3-d; 4-b
C) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d D) 1-d; 2-c; 3-a; 4-b
49. Quyidagi partiyalardan qay biri 1880-yilda tuzildi?
A) Milliy tiklanish partiyasi
B) Liberal demokratik partiyasi
C) Konservativlar partiyasi
D) "Fransiya ishchi partiyasi"
50. XX asr boshlarida Fransiya eksportida shoyi gazlama nechanchi o'rinda turardi?
A) birinchi B) ikkinchi
C) uchinchi D) to'rtinchi
51. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Fransiya eksportida to'rtinchi o'rinda qaysi mahsulot turgan?
A) jun gazlama B) shoyi gazlama
C) vino D) ip-gazlama
52. Qachon Fransiyada pensiya haqidagi qonun qabul qilindi?
A) 1906-yilda B) 1908-yilda
C) 1910-yilda D) 1912-yilda
53. XX asr 10-yillarida Fransiyada qabul qilingan pensiya haqidagi qonunga ko'ra pensiya yoshi necha yosh deb belgilandi?
A) 60 yosh B) 63 yosh
C) 65 yosh D) 70 yosh
54. 1879-yilda qaysi davlatlar o'rtasida tuzilgan ittifoqchilik shartnomasi Fransiyaning xalqaro mavqeyini yanada yomonlashtirib yubordi?
A) Germaniya va Buyuk Britaniya
B) Rossiya va Prussiya
C) Buyuk Britaniya va Prussiya
D) Germaniya va Avstriya-Vengriya
55. Qachon Shimoliy Afrikada joylashgan Tunisning bosib olinishi yangi mustamlakalar bosib olish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi?
A) 1878-yilda B) 1881-yilda
C) 1883-yilda D) 1886-yilda
56. Germaniya Fransiyaning Tunisni bosib olishga atayin qarshilik ko'rsatmaganligidan maqsadi, ...
A) o'zi ham Shimoliy Afrikadan mustamlaka egallash edi
B) Fransiya va Avstriya-Vengriya o'rtasida janjal chiqarish edi
C) Italiya va Fransiya munosabatlarini keskinlashtirish edi
D) Fransiyaning Germaniyaga 5 mlrd frank tovon to'laganligi edi
57. Qachon Italiya Germaniya va Avstriya-Vengriya imperiyalari o'rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoqqa qo'shildi?
A) 1882-yilda B) 1879-yilda
C) 1884-yilda D) 1880-yilda
44. Rossiyaning 1-Davlat dumasini ishida qancha deputat qatnashdi?

A) 384 deputat B) 422 deputat
C) 448 deputat D) 510 deputat

45. Rossiya Davlat duması deputatlarining qanchasi dehqonlar vakillaridan iborat edi?
A) 1/4 qismiga yaqini B) 2/3 qismidan ziyodi
C) 2/5 qismiga yaqini D) 3/6 qismidan ziyodi
46. Rossiya Davlat dumasidagi dehqonlar vakillari qanday fraksiyani tashkil qildilar?
A) "Krestyanlar" B) "Trudoviklar"
C) "Svobodniklar" D) "Zemlyamenliklar"
47. Qachon Rosiyada II Davlat dumasiga saylov o'tkazildi?
A) 1907-yilning yanvarida
B) 1907-yilning martida
C) 1906-yilning iyunida
D) 1906-yilning dekabrda
48. Qachon Rossiyada saylov to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi?
A) 1906-yil 16-mayda
B) 1906-yil 27-aprelda
C) 1907-yil 3-iyunda
D) 1907-yil 14-noyabrda
49. Rossiyada saylov to'g'risidagi yangi qonunga ko'ra.....
A) bir pomeshchikning ovozi 4 ta yirik burjuaziya vakilining, 260 nafar dehqonning va 543 ishchining ovozigacha teng edi
B) bir yirik burjuaziya vakilining ovozi 5 ta pomeshchikning 280 nafar dehqonning va 630 ishchining ovozigacha teng edi
C) faqat pomeshchiklar, burjuaziya va ishchilar saylovda qatnashish huquqiga ega edi
D) Davlat kengashi parlamentning yuqori palatasi vazifasini bajarar edi.
50. III Davlat dumasiga saylangan 442 nafar deputatning necha nafari pomeshchiklarning vakillari edi?
A) 180 nafari B) 187 nafari
C) 196 nafari D) 202 nafari
51. XX asr boshlarida Rossiyada Davlat Kengashi a'zolarining necha foizini podsho tayinlar edi?
A) 30 foizini B) 40 foizini
C) 50 foizini D) 60 foizini
52. Qachon Avstriya-Vengriya imperiyasi Avstriya va Vengriyaning hukmron tabaqalari o'rtasidagi bitim asosida vujudga keldi?
A) 1862-yilda B) 1865-yilda
C) 1866-yilda D) 1867-yilda
53. Avstriya-Vengriya imperiyasining Avstriya qirolligi tarkibiga qayerlar kirgan?
A) Chexiya, Moraviya, Galitsiya va Bukovina
B) Moraviya, Sloveniya, Makedoniya va Moldaviya
C) Slovakiya, Galitsiya, Chexiya va Moraviya
D) Galitsiya, Makedoniya, Chexiya va Sloveniya
54. Avstriya-Vengriya imperiyasining Vengriya hududiga qayerlar kirgan?
A) Moraviya, Galitsiya, Chexiya va Sloveniya
B) Slovakiya, Xorvatiya, va Transilvaniya
C) Xorvatiya, Chexiya va Makedoniya
D) Xorvatiya, Transilvaniya va Galitsiya
55. Avstriya-Vengriya imperiyasi tashkil etilganda uning imperatori qaysi sulola vakili edi?
A) Gabsburglar B) Luksemburglar
C) Shtafenlar D) Merovinglar
56. Avstriyada imperator hokimiyati rasman ... tomonidan cheklangan.
A) Seym B) Reyxstag
C) Duma D) Veche
57. Avstriya-Vengriya imperiyasi tashkil etilgach 3 ta qanday umumimperiya vazirligi tashkil etilgan?
A) 1. Ichki ishlar 2. Harbiy va dengiz 3. Maorif
B) 1. Savdo 2. Tashqi ishlar 3. Harbiy va dengiz
C) 1. Tashqi ishlar 2. Harbiy va dengiz 3. Moliya
D) 1. Harbiy va dengiz 2. Ichki ishlar 3. Savdo-sotiq
58. Avstriya-Vengriya imperiyasidagi 50 mln aholining qanchasi bo'ysundirilgan slavyan xalqlarini tashkil etgan?
A) 40 mln.ni B) 30 mln.ni
C) 25 mln.ni D) 35 mln.ni
59. XIX asrning 90-yillarida shahar aholisi butun Avstriya-Vengriya aholisining qancha qismini tashkil etgan?
A) 1/3 qismini B) 2/4 qismini
C) 2/5 qismini D) 3/6 qismini
60. 1898-yilda Vengriyaning un-tortish, vino tayyorlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab

chiqarish bo'yicha imperiyadagi hissasi qancha foizini tashkil etdi?

- A) 38,4 foizni
- B) 42,5 foizni
- C) 47,3 foizni
- D) 51,7 foizni

61. Avstriya-Vengriya imperiyasida XX asr boshlariga kelib ssuda kapitali, asosan qayerdagi yirik banklarda to'plandi?

- A) Stogolmdagi
- B) Venadagi
- C) Tiranadagi
- D) Brusseldagi

62. XX asr boshlarida qaysi davlat firmalari Avstriya-Vengriya sanoatining metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va shu kabi tarmoqlarini moliyaviy jihatdan ta'minlab turdi?

- A) Buyuk Britaniya
- B) Fransiya
- C) Germaniya
- D) AQSH

63. XX asr boshlarida Avstraliyaning qancha gektar yeri nemis pomeshchiklariga tegishli edi?

- A) 100 ming gektar
- B) 140 ming gektar
- C) 175 ming gektar
- D) 200 ming gektar

64. Qachon imperiya poytaxti Venada ishchilarning ommaviy namoyishi o'tkazildi?

- A) 1887-yilda
- B) 1869-yilda
- C) 1873-yilda
- D) 1875-yilda

65. Qachon Avstriya hukumati ishchilar harakatiga qarshi "favqulodda qonun" joriy etdi?

- A) 1887-yilda
- B) 1882-yilda
- C) 1884-yilda
- D) 1886-yilda

66. Qachon Avstriya sotsial demokratik partiyasi (ASDP) tuzildi?

- A) 1882-yilda
- B) 1884-yilda
- C) 1887-yilda
- D) 1889-yilda

67. Qachon Avstriya hukumati saylov tizimi islohati haqida qonun qabul qilishga majbur bo'ldi va unga ko'ra 24 yoshli erkaklar saylash va saylanish huquqiga ega bo'ladilar?

- A) 1903-yilda
- B) 1905-yilda
- C) 1907-yilda
- D) 1909-yilda

68. Ko'proq Avstriyalik katoliklardan iborat bo'lgan qaysi partiya arboblari "Buyuk Germaniya" g'oyasini sinfiy tinchlikni targ'ib qilish, barcha ijtimoiy nizolarni "inoqlik va muhabbat ruhida" hal qilishga da'vat qilish va antisemitizmni targ'ib qilish bilan qo'shib olib bordilar?

- A) Xristian sotsialistlari
- B) Pangerman partiyasi
- C) Avstriya sotsial demokratik partiyasi
- D) Avstriya communist ik partiyasi

69. Qachon Chexiyada qamal holati joriy qilindi?

- A) 1868-yilda
- B) 1896-yilda
- C) 1870-yilda
- D) 1872-yilda

70. 1880-yilda Chexiyada

- A) chex muxolifati vakillari davlat to'ntarishi uyushtirdi
- B) sud va ma'muriy ishlar uchun ikki til joriy qilindi
- C) Seym tarqatib yuborildi
- D) Konstitutsiya qabul qilindi

71. Qachondan boshlab, Praga universitetida ham o'qitish ikki tilda (nemis va chex) olib boriladigan bo'ldi?

- A) 1880-yildan
- B) 1881-yildan
- C) 1882-yildan
- D) 1883-yildan

72. Avstriya-Vengriya imperiyasining qaysi hududidagi ukrain aholisi milliy zulm ostida edi?

- A) Bukovina
- B) Galitsiya
- C) Moraviya
- D) Slovakiya

73. XIX asrning so'ngi o'n yillarida milliy zulmning yanada kuchayishi natijasida qayerdagi ukrain aholisi "vengrlashtirildi"?

- A) Zakarpatyedagi
- B) Bukovinadagi
- C) Chexiyadagi
- D) Moraviyadagi

74. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya imperiyasining qaysi hududi doimo harbiy yoki favqulodda holatda tutildi, xalq noroziligi qattiq taqiblar bilan shafqatsiz bostirildi?

- A) Xorvatiya
- B) Bukovina
- C) Moraviya
- D) Chexiya

75. Xorvatiyadagi milliy-ozodlik harakatiga Vengriya hukumati 1912-yilda nima bilan javob berdi?

- A) harakat yo'l boshchilarini qatl etish bilan
- B) katta qo'shin kiritish bilan
- C) Xorvatiya favqulodda holatda deb
- D) Xorvatiya Seymini tarqatib yuborish va konstitutsiyani to'xtatib qo'yish bilan

76. Qachon Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz yuz berdi?
 A) 1907-yilda B) 1905-yilda
 C) 1909-yilda D) 1912-yilda
77. Qachon Avstriya-Vengriya va Germaniya imperiyalari o'rtasida ittifoq shartnomasi tuzildi?
 A) 1875-yilda B) 1877-yilda
 C) 1879-yilda D) 1881-yilda
78. 1878-yilda bo'lib o'tgan Berlin kongressida Avstriya-Vengriya qayerlarni bosib olish huquqini qo'lga kiritdi?
 A) Bolqondagi Bosniya va Gersogovinani
 B) Bolqondagi Galitsiya va Bukovinani
 C) Zakarpatiyedagi hududlarni
 D) Boltiq dengizi bo'yidagi hududlarni
79. Quyidagi qaysi davlatlar Bolqon ittifoqini tuzdilar?
 A) Serbiya, Makedoniya, Galitsiya va Gersogovina
 B) Bolgariya, Serbiya, Chernagoriya va Gretsiya
 C) Chexiya, Slovakiya, Serbiya va Chernogoriya
 D) Slovakiya, Gretsiya, Chernogoriya va Bolgariya
80. Qachon Bolqon Ittifoqi Turkiyaga qarshi urush boshladi?
 A) 1909-yilda B) 1910-yilda
 C) 1911-yilda D) 1912-yilda
81. Bolqon ittifoqi qaysi davlatlar madadiga tayanar edi?
 A) Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya
 B) Germaniya, AQSH va Rossiya
 C) Fransiya, Germaniya va Italiya
 D) AQSH, Rossiya va Germaniya
82. Qachon Avstriya-Vengriya imperiyasi Bolgariya, Serbiya va Gretsiyaga hujum qildi?
 A) 1910-yilda B) 1911-yilda
 C) 1912-yilda D) 1913-yilda
83. Ikkinchi Bolqon urushida Chernogoriya va Ruminya qaysi davlatlarga yordam berdi?
 A) Bosniya va Slovakiyaga
 B) Serbiya va Gretsiyaga
 C) Chexiya va Moraviyaga
 D) Sloveniya va Makedoniyaga
84. Qachon Avstriya-Vengriya parlamenti tarqatib yuborildi?
 A) 1912-yilda B) 1913-yilda
 C) 1914-yilda D) 1915-yilda
85. Qachon Avstriya-Vengriya taxt vorisi Frans-Ferdinandning o'ldirilishi Avstriya-Vengriya hukmron tabaqalarining urushni boshlab yuborishlari uchun bohona bo'ldi?
 A) 1913-yilning 10-mayida
 B) 1913-yilning 22-iyunida
 C) 1914-yilning 28-iyulida
 D) 1914-yilning 24-avgustida
86. Qachon Fransiya qo'shini himoyasida bo'lgan Rim shahri Italiya mamlakati tarkibiga qo'shib olindi?
 A) 1871-yilning 3-oktabrida
 B) 1872-yilning 12-mayida
 C) 1873-yilning 22-martida
 D) 1874-yilning 14-iyunida
87. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Italiyadagi 27 mln. aholidan qancha kishi saylov huquqiga ega bo'lgan?
 A) 500 ming B) 600 ming
 C) 700 ming D) 850 ming
88. Qachon Italiyada cherkov va davlat munosabatini tartibga soluvchi qonun qabul qilindi?
 A) 1871-yilda B) 1873-yilda
 C) 1875-yilda D) 1877-yilda
89. 1906-yilda tashkil topgan qaysi aksiyadorlik jamiyati kimyo, rezina, mashinasozlik, elektr, avtomobil sanoati va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda tezda ustunlik mavqeyini egallab oldi?
 A) Diana B) Fiat
 C) Breda D) SNIA
90. Italiyada 1914-yilga kelib, xorijga ketganlar soni qancha kishini tashkil etdi?
 A) 5,2 mln. kishini B) 6,4 mln. kishini
 C) 7,5 mln. kishini D) 8,2 mln. kishini
91. Qachon Italiya Sotsialistik partiyasi tuzildi?
 A) 1886-yilda B) 1888-yilda
 C) 1890-yilda D) 1892-yilda

92. Qachon Milanda ro'y bergan umumiy ish tashlashda 5 kunlik barrikada janglariga aylanib ketdi?

- A) 1892-yilda B) 1896-yilda
C) 1898-yilda D) 1900-yilda

93. Qaysi yillarda Italiya hukumatini o'z davrining mashhur siyosiy arbobi J.Jolitti orada ma'lum uzilishlar bilan boshqardi?

- A) 1900-1907-yillarda B) 1903-1914-yillarda
C) 1905-1915-yillarda D) 1907-1918-yillarda

94. XX asr boshlarida qaysi siyosiy arbob "Sanoat taraqqiyoti tepasida ish haqi yuqori bo'lgan mamlakatlar turadi," deb takidlagan edi?

- A) J.Jolitti B) G.V.Plexanov
C) V.Vilson D) T.Ruzvelt

95. Qachon Italiya Germaniya va Avstriya-Vengriya ittifoqiga qo'shildi?

- A) 1878-yilda B) 1880-yilda
C) 1882-yilda D) 1884-yilda

96. Qachon Italiya Efiopiyani bosib oldi?

- A) 1890-yilda B) 1892-yilda
C) 1894-yilda D) 1895-yilda

97. 1896-yilning 1-avgustida qayerda Italiya qo'shinlari tor-mor etildi?

- A)Adua yonida B)Eriteriyada
C)Somalida D) Liviyada

98. Qachon Italiya va Fransiya davlatlari o'rtasida bitim imzolandi?

- A) 1900-yilda B) 1901-yilda
C) 1902-yilda D) 1903-yilda

99. Qachon Italiya Bosniya va Gersogovinani Avstriya istilo qilishiga qat'iy norozilik bildirdi?

- A) 1900-yilda B) 1902-yilda
C) 1905-yilda D) 1908-yilda

100. Qachon Italiya Rossiya bilan Bolqon yarimorolidagi o'z manfaatlarini quvvatlovchi bitim tuzdi?

- A) 1902-yilda B) 1904-yilda
C) 1907-yilda D) 1909-yilda

101. Qachon Italiya Liviyaga hujum qildi?

- A) 1903-yilda B) 1905-yilda
C) 1909-yilda D) 1911-yilda

102. Qaysi yillardan boshlab Liviya Italiya mustamlakasiga aylandi?

- A) 1904-yilda B) 1908-yilda
C) 1912-yilda D) 1914-yilda

103. Qaysi davrda janubiy slavyanlarning ko'pchiligi hamon chet el zulmi ostida ezilmoqda edi?

- A) XIX asrning 50-yillarida
B) XIX asrning 70-yillarida
C) XIX asrning 90-yillarida
D) XIX asrning 10-yillarida

104. XIX asrning 60-yillardan keyin slavyan xalqlarining milliy-ozodlik harakatining yo'lboshchisi kim edi?

- A) Vasil Levskiy
B) Xristo Bolev
C) Aleksandr Battenburg
D) J.Jolitti

105. Qachon Bolgariyada qo'zg'olon boshlandi?

- A) 1870-yilda B) 1872-yilda
C) 1874-yilda D) 1876-yilda

106. Qachon Rossiya hukumati Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi?

- A) 1872-yilda B) 1874-yilda
C) 1876-yilda D) 1877-yilda

107. Qachon qabul qilingan Bolgariya konstitutsiyasi yangidan vujudga keltirilgan Bolgariyaning davlat tuzumini belgilab berdi?

- A) 1874-yilda B) 1876-yilda
C) 1878-yilda D) 1880-yilda

108. Rossiya imperatori Aleksandr II kimni Bolgariya davlati boshlig'i etib saylashni taklif etadi?

- A) Pruss zobiti bo'lgan Aleksandr Battenbergni
B) Vasil Levskiy
C) talantli publitist va shoir Xristo Botevni
D) siyosiy arbob Vasiliy Neverskiy

109. Qachon Avstriya-Vengriya madadiga tayangan Bolgariya o'zini turkiyadan to'la mustaqil davlat deb e'lon qildi?

- A)1902-yilda B)1904-yilda
C)1906-yilda D)1908-yilda

110. Berlin Kongressi Serbiyaning qaysi hududlariga bo'lgan da'vosini rad etdi?

- A) Bosniya va Gersogovina, Novi-Pazar

- hududlariga
B) Slovakiya va Moraviya hududlariga
C) Sloveniya va Makedoniya hududlari
D) Novi Pazar va Gersogovina hududlariga

111. Birinchi Bolqon urushida Turkiyaning yengilishi natijasida qachon Albaniya mustaqillikka erishdi?
A) 1911-yil 10-iyulda
B) 1911-yil 16-mayda
C) 1912-yil 28-noyabrda
D) 1912-yil 21-dekabrda

5-mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Osiyo davlatlari

1. Qaysi yillarda Yaponiyada yuz bergan Meydzi inqilobi Yaponiyada bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurilishiga keng yo'l ochdi?
A) 1867-1868-yillarda
B) 1865-1866-yillarda
C) 1870-1971-yillarda
D) 1872-1873-yillarda
2. Qachon "to'rt tabaqa" haqidagi qonun qabul qilindi?
A) 1867-yilda B) 1868-yilda
C) 1869-yilda D) 1871-yilda
3. 1871-yilda Yaponiyada qanday qonun bekor qilindi?
A) "To'rt tabaqa" haqidagi
B) huquqsiz quyi tabaqa haqidagi
C) Samuraylik haqidagi
D) yalpi harbiy xizmat haqidagi
4. Yaponiyada qaysi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida islohatlar o'tkazilib, yerni erkin oldi-sotti qilish, istalgan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berildi?
A) 1870-1875-yillarda
B) 1871-1878-yillarda
C) 1873-1880-yillarda
D) 1875-1882-yillarda
5. Yaponiyada to'qimachilik sanoati 1890-yilda barcha sanoat tarmoqlarining qancha foizini tashkil etadi?
A) 45 foizini B) 50 foizini
C) 55 foizini D) 60 foizini

6. Chorak asr davomida Yaponiyada qancha sanoat korxonasi qurildi?
A) 1000 ta B) 1200 ta
C) 1300 ta D) 1400 ta

7. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yaponiyada sanoat ishlab chiqarishi Rossiyadan necha barobar tez rivojlandi?
A) besh B) yetti
C) o'n D) o'n ikki

8. Buyuk Britaniya,Fransiya,AQSH dan farqli o'laroq, Yaponiya hokimiyati burjuaziya qo'lida bo'lmay, qo'lida edi.
A) pomeschchik-burjuaziya bloki
B) samuraylar tabaqasi
C) kapitalistlar
D) yirik zamindorlar

9. 1900-1913-yillarda sanoat ishlab chiqarishi Yaponiyada necha foizga o'shdi?
A) 85 foizga B) 120 foizga
C) 168 foizga D) 181 foizga

10. XX asr boshlarida Yaponiyada agrar islohotga ko'ra, yer olgan dehqonlarning qancha qismigina olgan yerlarini saqlab qola oldi?
A) 1/3 qismi B) 2/5 qismi
C) 3/7 qismi D) 2/4 qismi

11. Qachon Yaponiyada Prussiya konstitutsiyasi nomunasi asosida konstitutsiya qabul qilindi?
A) 1882-yilda B) 1884-yilda
C) 1886-yilda D) 1889-yilda

12. Yaponiya konstitutsiyasiga ko'ra,
A) Vazirlar Kengashi faqat Imperatorga hisob berardi
B) syogunlik bekor qilindi
C) yalpi harbiy xizmat joriy etildi
D) barcha uchun saylov huquqi joriy etildi

13. Qachon Yaponiya Xitoyning noroziligiga qaramay, Ryukyu orolini bosib oldi?
A) 1876-yilda B) 1879-yilda
C) 1881-yilda D) 1884-yilda

14. Qachon Yaponiya Janubiy Saxalin hisobiga Kuril orollarini Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi?

- A) 1872-yilda B) 1875-yilda
C) 1877-yilda D) 1879-yilda
15. 1876-yilda yaponlar uchun qaysi davlat “ochiq” mamlakat deb e’lon qilindi?
A) Vyetnam B) Hindiston
C) Xitoy D) Koreya
16. Qaysi yillardagi Yaponiya-Xitoy munosabatlaridagi ziddiyat ular o’rtasida urush chiqishiga olib keldi?
A) 1885-1886-yillarda B) 1888-1889-yillarda
C) 1892-1893-yillarda D) 1894-1895-yillarda
17. 1889-yilda qabul qilingan Yaponiya konstitutsiyasiga ko’ra imperatorga qanday huquqlar berildi?
1. sulh tuzish huquqi; 2. qo’shinlarning Oliy bosh qo’mondoni bo’lish; 3. vazirlarni ishdan bo’shatish; 4. parlamentni chaqirish, ochish va tarqatib yuborish; 5. qonunlar o’rniga oliy farmonlar chiqarish; 6. urush e’lon qilish; 7. siyosiy partiya a’zosi bo’lish
A) 1, 2, 5, 6, 7 B) 1, 2, 4, 5, 6
C) 1, 3, 4, 5, 6, 7 D) 3, 4, 5, 6, 7
18. Qachon Xitoy qo’shinlari Pxenyan yonida mag’lubiyatga uchradi?
A) 1890-yilda B) 1892-yilda
C) 1894-yilda D) 1896-yilda
19. 1895-yilda Xitoy va Yaponiya davlatlari o’rtasida.....
A) do’stlik shartnomasi imzolandi
B) savdo-sotiq bitimi imzolandi
C) chegara masalalari hal qilindi
D) Simonoseki sulhi tuzildi
20. Qachon Yaponiya 10 yillik qurollanish dasturini qabul qildi?
A) 1892-yilda B) 1895-yilda
C) 1898-yilda D) 1901-yilda
21. Qachon Yaponiya Buyuk Britaniya bilan 5 yillik bitim tuzib, Xitoyda Buyuk Britaniya-Yaponiya manfaatlarini belgilab oldi?
A) 1902-yilda B) 1903-yilda
C) 1904-yilda D) 1905-yilda

22. Qachon Yaponiya Koreya yarim orolini harbiy kuch ishlatib qonunga zid ravishda o’ziga qo’shib oldi?
A) 1902-yilda B) 1905-yilda
C) 1907-yilda D) 1910-yilda
23. Qachon yuz bergan Rossiya-Yaponiya urushida erishilgan g’alaba Yaponiyaning qudratini yanada orttirdi?
A) 1900-yilda B) 1902-yilda
C) 1904-yilda D) 1906-yilda
24. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qaysi davlat AQSH va Buyuk Britaniyaning Uzoq sharqdagi “xafli raqibi” ga aylandi?
A) Rossiya B) Fransiya
C) Germaniya D) Yaponiya
25. XIX asrning 70-yillarida ajnabiylar Xitoyning nechta porti (bandargohi) ga bemalol kiradilar va xo’jayinlardek ish yuritardilar?
A) 12 ta B) 20 ta C) 26 ta D) 28 ta
26. 1897-yilda Germaniya qayerni bosib oldi va Shandun viloyatini o’z ta’sir doirasiga kiritdi?
A) Szyaochjouvan korfazini
B) Suamchjuvan va Shandunni
C) Veyxay portini
D) Port-Artunni
27. XIX asrning oxirida Xitoyning eng boy hududi Yanszi daryosi havzasi qaysi davlatning ta’sir doirasiga tushib qoldi?
A) AQSH ning B) Germaniyaning
C) Rossiyaning D) Buyuk Britaniyaning
28. Qachon Shimoliy Xitoyda birinchi temir yo’l ishga tushirildi?
A) 1881-yilda B) 1883-yilda
C) 1885-yilda D) 1887-yilda
29. 1897-yilda Xitoyda qancha chet el firmalari mavjud edi?
A) 400 ga yaqin B) 500 dan ziyod
C) 600 ga yaqin D) 700 dan ziyod
30. Yevropaning Xitoyda savdodagi hissasi 1990-yilda qanchaga teng bo’ldi?
A) 20 mln.dollarga B) 30 mln.dollarga
C) 40 mln.dollarga D) 50 mln.dollarga

31. Qachon Xitoy bilan Buyuk Britaniya o'rtasida tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi?
A) 1874-yilda B) 1876-yilda
C) 1878-yilda D) 1880-yilda
32. Konvensiya Buyuk Britaniya Xitoyning necha portiga erkin kirish, qator viloyatlarda imtiyozli savdo qilish huquqini berdi?
A) 8 ta B) 10 ta C) 12 ta D) 14 ta
33. Qachon Fransiyaning Vyetnamni bosib olishi tufayli Fransiya-Xitoy munosabatlari yomonlashdi?
A) 1880-yilda B) 1882-yilda
C) 1884-yilda D) 1886-yilda
34. Qachon Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yerda Fransiya protektoratini tan oldi?
A) 1882-yilda B) 1884-yilda
C) 1886-yilda D) 1888-yilda
35. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xitoydagi ijtimoiy harakatda kimning o'rni alohida ahamiyatga ega bo'ldi?
A) Chan Kayshining B) Sun Yat Senning
C) Lyu Banning D) Dya Ponning
36. Sun Yat Senning qanday nomdagi tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlash va Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish uchun kurashdi?
A) Xitoy uygonish jamiyati
B) Xitoy Kommunistik partiyasi
C) Ixetuan harakati
D) Xitoy xalq partiyasi
37. Qachon "Ixetuan" harakati qo'zg'olon tusini oldi?
A) 1888-yilda B) 1892-yilda
C) 1897-yilda D) 1899-yilda
38. Qachon Xitoy hukumati qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi?
A) 1898-yilda B) 1900-yilda
C) 1902-yilda D) 1904-yilda
39. Pekinga chet el intervensiyasi boshlanganida unda nechta davlat qatnashdi?
A) beshta B) oltita
C) yettita D) sakkizta
40. Xitoy chet el interventlariga qancha tovon to'lashga majbur etildi?
A) 20 mln.dollar B) 28 mln.dollar
C) 33 mln.dollar D) 37 mln.dollar
41. Qaysi davlat monopolistlari XIX asrning 90-yillarida Xitoyga bostirib kirishni o'zlariga asosiy maqsad qilib oladilar?
A) AQSH B) Buyuk Britaniya
C) Fransiya D) Rossiya
42. Qachon AQSH davlat kotibi Xeyning " ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" siyosati e'lon qilindi va u "Xey" doktrinasi deb nom oldi?
A) 1895-yil mayda B) 1897-yil iyunda
C) 1899-yil sentabrda D) 1901-yil aprelda
43. Quyidagi qaysi tarixiy atama- "iqtisodiy qoloq va qaram davlatlar burjuaziyasining chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vositachilik qiluvchi qismi" degan ma'noni anglatadi?
A) Intervensiya B) Komprador
C) Konvensiya D) Anneksiya
44. Xitoyning eksporti 1901-yildan 1911-yilgacha 122 mln.dollardan qanchaga oshdi?
A) 200 mln.dollarga B) 245 mln.dollarga
C) 280 mln.dollarga D) 300 mln.dollarga
45. Xitoyda xorijiy davlatlar ichida qaysisi tovar ayirboshlashda birinchi o'rinda turgan?
A) AQSH B) Rossiya
C) Buyuk Britaniya D) Fransiya
46. 1914-yilga kelib, Xitoy xorijiy davlatlardan qancha qarz bo'lib qoldi?
A) 400 mln.dollar B) 580 mln.dollar
C) 790 mln.dollar D) 835 mln.dollar
47. Qachon Xitoyda chet elliklardan temiryo'l qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzilgach, qurolli qarshilik tusini oldi?
A) 1905-yilda B) 1909-yilda
C) 1911-yilda D) 1913-yilda
48. Xitoydagi qaysi inqilob natijasida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda XVIII asrdan boshlab hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi?
A) Sinxay inqilobi B) Gomindan inqilobi
C) Pekin inqilobi D) Shanxay inqilobi

49. Qachon Sun Yat Sen "Xitoy uyushmalari ittifoqi" (Tunmin xay) degan siyosiy tashkilot tuzdi?
 A) 1901-yilda B) 1903-yilda
 C) 1905-yilda D) 1907-yilda
50. "Xitoy uyushmalari ittifoqi" (Tunmin xay) 1905-yil noyabrida ... gazetasini chiqara boshladi
 A) Tunmin xay B) Minbao
 C) Sinxay inqilobi D) Shanxay inqilobi
51. Qachon ko'p yillik muhojirlikdan so'ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi?
 A) 1905-yilda B) 1907-yilda
 C) 1909-yilda D) 1911-yilda
52. Pekindagi imperator hukumatining boshlig'i kim edi?
 A) Sun Yat Sen B) Yuan Shikay
 C) Di Syapon D) Vin Kandi
53. Qachon Yuan Shikay inqilobiy harakatining ta'siri bilan Sin sulolasini taxtdan voz kechishga majbur etdi?
 A) 1907-yil 5-mayda
 B) 1909-yil 12-martda
 C) 1910-yil 5-iyunda
 D) 1912-yil 12-fevralda
54. Demokratik kuchlar 1912-yilda qanday partiyani tuzdilar?
 A) Gomindan (Milliy partiya)ni
 B) Sinxay inqilobi partiyasini
 C) Xitoy Xalq partiyasini
 D) Shanxay xalq partiyasini
55. Qachon Xitoyning janubida hukumatning reaksion siyosatiga qarshi "ikkinchi inqilob" deb nomlangan qo'zg'olon boshlanib ketdi?
 A) 1910-yilda B) 1911-yilda
 C) 1912-yilda D) 1913-yilda
56. Qachon Yuan Shikay Konstitutsiyaviy Kengash chaqirdi?
 A) 1910-yilda B) 1912-yilda
 C) 1914-yilda D) 1916-yilda
57. Metropoliya XIX asr oxiri XX asr boshlarida qanday boshqargan?
 A) vitse-qiroli boshchiligidagi amaldorlar va politsiya yordamida
 B) harbiylar yordamida
 C) mahalliy amaldorlar yordamida
 D) Buyuk Britaniya hukumati tomonidan tayinlangan bosh vazir
58. Hindistonda 1886-yilda to'qimachilik sanoatida nechta fabrika bor edi?
 A) 70 ta B) 75 ta C) 85 ta D) 95 ta
59. 1900-yilda Hindiston temir yo'l tarmoqlari qanchani tashkil qildi?
 A) 20000 km.ni
 B) 30000 km.ni
 C) salkam 40000 km.ni
 D) salkam 50000 km.ni
60. Buyuk Britaniya mustamlakachilari Hindistonda sanoat korxonalarini qayerlarda joylashtirishga harakat qildi?
 A) dengiz bo'yi port shaharlarida
 B) konlar yaqinida
 C) aholi ko'p shaharlarda
 D) aholi punktlaridan uzoq joyda
61. 1873-yildan 1883-yilgacha Hindiston bilan Buyuk Britaniya savdosi qanchaga o'shdi?
 A) 40 foizga B) 50 foizga
 C) 60 foizga D) 70 foizga
62. Buyuk Britaniya mustamlakachilari tomonidan ochilgan sug'orish inshootlari bor yo'g'i necha foiz yerni sug'orishga yetar edi?
 A) 20 foizga B) 30 foizga
 C) 40 foizga D) 50 foizga
63. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Hindiston qishloq xo'jaligida monokulturaning vujudga kelishi natijasida Assam nima yetishtirishga ixtisoslashdi?
 A) kanop B) paxta
 C) bug'doy D) choy
64. 1870-1890-yillar davomida Hindistonda necha martadan ko'p ocharchilik yuz berdi?
 A) 10 martadan B) 15 martadan
 C) 20 martadan D) 25 martadan
65. XIX asr to'rtinchi choragida Hindistonda yuz bergan ocharchilik natijasida qancha odam qirilib ketdi?
 A) 10 mln.odam B) 15 mln.odam
 C) 18 mln.odam D) 22 mln.odam

66. Qachon ingliz ma'muriyati Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qildi?
A) 1875-yilda B) 1878-yilda
C) 1881-yilda D) 1884-yilda
67. 1910-yilga kelib Hindistonda kanop-tola fabrikalari soni qanchaga ko'paydi?
A) ikki barobarga B) uch barobarga
C) to'rt barobarga D) besh barobarga
68. XX asr boshlarida paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to'qish korxonalarining nechitasi hind kapitalistlariga qarashli edi?
A) 150 tasi B) 175 tasi
C) 215 tasi D) 245 tasi
69. 1896-1906-yillarda qancha odam ochlikdan o'ldi?
A) 5 mln.dan ziyod B) 8 mln.ga yaqin
C) 10 mln.dan ortiq D) 15 mln.ga yaqin
70. 1904-yil Hindistonda vabodan qancha odam qirilib ketdi?
A) 500 ming odam
B) 700 ming odam
C) 900 ming odam
D) 1 mln.dan ortiq odam
71. Qachon Kerzon universitetlarga kirish pulini ikki barobarga oshirdi?
A) 1900-yilda B) 1902-yilda
C) 1905-yilda D) 1907-yilda
72. Qachon Bombay shahrida muayyan dasturga ega siyosiy partiya – "Hindiston milliy kongressi" (HMK) tuzildi?
A) 1880-yilda B) 1885-yilda
C) 1890-yilda D) 1895-yilda
73. Kim " milliy kongress inqilobdan arzonroq" deb izohlagan edi?
A) Hindiston vitse-qiroli lord Dafferin
B) Hindiston vitse-qiroli lord Kerzon
C) Hindistondagi radikal oqim vakili Bal Gandaxara Tilak
D) Hindiston Milliy Kongressi raisi Maxatma Gandi
74. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Hindistondagi radikal oqim rahbari Bal Gandaxara Tilak (1856-1920) qaysi shaharda mustaqil o'rta maktab tashkil qildi?
A) Dehli B) Puna
C) Kashmir D) Agra
75. Qachon Hindistonda "so'l" radikal oqim shakllandi?
A) 1885-yilda B) 1888-yilda
C) 1890-yilda D) 1892-yilda
76. 1880-yilda Bal Gandaxara Tilak ... gazetasini tashkil etdi.
A) Kesari (sher) B) Svaraj
C) Svadeshi D) Paysafond
77. Ingliz mustamlakachilari milliy-ozodlik harakatini "bog'ishga" intilib, qachon Bengaliyani ikki qismga bo'lib tashladi?
A) 1900-yilda B) 1905-yilda
C) 1902-yilda D) 1907-yilda
78. XX asr boshlarida Kalkuttadagi namoyishda qancha kishi qatnashdi?
A) 50 ming B) 70 ming
C) 90 ming D) 100 ming
79. Qachon "so'l" radikal oqim talabi bilan Hindiston milliy kongressi qo'shimcha qaror qabul qildi?
A) 1901-yil mayda B) 1903-yil fevralda
C) 1906-yil dekabrda D) 1908-yil aprelda
80. 1908-yili Bombay viloyatining qaysi shahrida Hindiston milliy kongressining qurultoyi chaqirildi?
A) Agra B) Dehli C) Sind D) Surat
81. 1909-yilda qanday nomdagi hujjat qabul qilindi?
A) Hindiston kengashi haqida qonun
B) Svaraj, Svadeshi dasturlari
C) Ta'lim to'g'risidagi
D) Saylovlar to'g'risidagi
82. Qaysi yildan keyin Hindiston Buyuk Britaniyaning bo'lg'usi jahon urushi rejalarida muhim rol o'ynay boshladi?
A) 1905-yilda B) 1907-yilda
C) 1910-yilda D) 1912-yilda
83. Qachon Hindistonda Mustamlaka ma'muriyati ish vaqtini 12 soat bilan cheklash haqida qonun qabul qildi?
A) 1907-yilda B) 1909-yilda

- C) 1910-yilda D) 1911-yilda
84. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Eronga kapital chiqarish bo'yicha qaysi davlat birinchi o'rinda edi?
A) Rossiya B) Buyuk Britaniya
C) Fransiya D) Germaniya
85. Qachon Buyuk Britaniya Eron konlaridan foydalanish, tosh va temir yo'l qurish konsessiyalari olindi?
A) 1872-yilda B) 1874-yilda
C) 1876-yilda D) 1878-yilda
86. Qachon ingliz monopolisti Reyter Eronda "shahanshohbank" ochishga erishdi?
A) 1880-yilda B) 1874-yilda
C) 1887-yilda D) 1889-yilda
87. Birinchi jahon urushi arafasida Eron Buyuk Britaniyadan qancha qarz bo'lib qoldi?
A) 6,5 mln. funt sterling
B) 7 mln. funt sterling
C) 9,6 mln. funt sterling
D) 10,3 mln. funt sterling
88. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi qanchani tashkil etadi?
A) 70 million rublni B) 110 million rublni
C) 142 million rublni D) 164 million rublni
89. Inglizlar kimlarni markazga, shoh hukmronligiga qarshi g'ijgijlab turdilar?
A) Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziriston xonlarini
B) gilzoylar(qabilalar), Tabriz xonlarini
C) abdallar(qabilalar), Huziriston xonlarini
D) hojarlar sulolasini
90. Qachon shoh konstitutsiya qabul qilish haqida farmon chiqarishga majbur bo'ldi?
A) 1902-yilning 12-mayida
B) 1904-yilning 10-iyunida
C) 1906-yil 5-avgustida
D) 1908-yilning 22-martida
91. Eronda qaysi ijtimoiy qatlamlar saylov huquqiga ega bo'ldilar?
A) ruhoniylar, ishchilar, dehqonlar, zamindorlar
B) kojarlar, ruhoniylar, savdogarlar, zamindorlar, dehqonlar, hunarmandlar
C) hunarmandlar, zamindorlar, ruhoniylar,

- sanoatchilar
D) dehqonlar, ishchilar, zamindorlar, savdogarlar
92. 1907-yilda Shoh Muzaffariddin vafot etgach, taxtga mustabid tuzum tarafdori bo'lgan kim o'tirdi?
A) Muhammad Alishoh
B) Muhammad Afzalxon
C) Ali Muzaffariddin
D) Shoh Abbosxon
93. XX asr boshlarida qabul qilinayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun ulamo tayinlanadigan bo'ldi?
A) ikki ulug' B) uch ulug'
C) to'rt ulug' D) besh ulug'
94. 1907-yildagi Buyuk Britaniya-Rossiya bitimiga ko'ra Eron necha qismga bo'lindi?
A) ikki B) uch C) to'rt D) besh
95. 1908-yilda Eron shohi kimlar yordamida aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazdi?
A) ingliz va ruslar
B) fransuzlar va nemislar
C) ruslar va nemislar
D) inglizlar va fransuzlar
96. Qachon Tehronda Muhammad Alishoh taxtdan tushirildi?
A) 1907-yilda B) 1909-yilda
C) 1910-yilda D) 1911-yilda
97. XX asr boshlarida Eron Buyuk Britaniya-dan qancha qarz oldi?
A) 500 mln. funt sterling
B) 950 mln. funt sterling
C) 1 mln. 250 ming. funt sterling
D) 1 mln. 600 ming. funt sterling
98. Qachon Eron 1907-yilgi Rossiya-Buyuk Britaniyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimini tan olishga majbur etildi?
A) 1909-yilda B) 1910-yilda
C) 1911-yilda D) 1912-yilda
99. XX asrning boshlarida Eron Rossiyadan qancha qarz oldi va iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan buyuk davlatlarga qaram bo'lib qoldi?
A) 10 mln. rubl B) 12 mln. rubl
C) 14 mln. rubl D) 16 mln. rubl

100. Qaysi davrda Afg'oniston Rossiya bilan Buyuk Britaniya o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakat bo'lib qoldi?

- A) XIX asrning 50-yillarida
- B) XIX asrning 70-yillarida
- C) XIX asrning 90-yillarida
- D) XIX asrning 10-yillarida

101. Qachon Buyuk Britaniya Hindiston-Afg'oniston chegarasida harbiy kuch to'play boshladi?

- A) 1870-yilda
- B) 1871-yilda
- C) 1872-yilda
- D) 1873-yilda

102. 1878-yili Afg'oniston amiri Sheralixon

- A) ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi
- B) Rossiyadan yordam so'rab elchi yubordi
- C) Stoletov boshchiligidagi Rossiya elchilarini kutib oldi
- D) Buyuk Britaniyaga qarshi urush e'lon qildi

103. Vafot etgan Sheralixon o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Yoqubxon 1879-yilda.....

- A) Rossiya bilan do'stlik shartnomasini imzoladi
- B) Gandamak bitimini imzoladi
- C) ingliz missiyasini Kobulda qabul qilmadi
- D) Hindiston-Afg'oniston chegaralarini belgi-lab oldi

104. Qachon Afg'onistonning sobiq amiri M.Afzalxonning o'g'li Abdurahmon Shimoliy Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi?

- A) 1873-yilning o'rtalarida
- B) 1878-yilning noyabrida
- C) 1879-yilning oxirida
- D) 1880-yilning bosida

105. Inglizlarning amir Abdurahmon bilan olib borgan muzokaralari natijasida qaysi shahar Buyuk Britaniya ta'sir doirasida qoldi?

- A) Kobul
- B) Hirot
- C) Qandahor
- D) Mozori Sharif

106. Amir Abdurahmon qaysi davrda Afg'onistonda hukmronlik qildi?

- A) 1880-1901-yillarda
- B) 1882-1902-yillarda
- C) 1878-1900-yillarda
- D) 1884-1906-yillarda

107. Afg'onistonning qaysi amiri mamlakatda "yopiq" siyosat olib bordi?

- A) Sheralixon
- B) Yoqubbek

C) Abdurahmon D) Ayubxon

108. Afg'oniston amiri Abdurahmon kimlarni o'z tarafida tutish uchun ularga maosh belgiladi?

- A) diniy ulamolarga
- B) harbiy boshliqlarga
- C) viloyat boshliqlariga
- D) xalq ta'limi vakillariga

109. Afg'onistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro ahvoli to'la ma'noda qaysi davlatlarning o'zaro munosabatlariga bog'liq edi?

- A) Buxoro amirligi va Rossiyaning
- B) Rossiya va Buyuk Britaniyaning
- C) Turkiya va Hindistonning
- D) Buyuk Britaniya va Eronning

110. Qachon turkmanlar yashaydigan joylarda afg'on-rus chegaralari qat'iy belgilab olindi?

- A) 1880-yilda
- B) 1883-yilda
- C) 1885-yilda
- D) 1887-yilda

111. Afg'oniston amiri Abdurahmon ikki ulkan mustamlakachi davlat (Rossiya va Buyuk Britaniya) kelishmovchiliklaridan foydalanib mamlakat hududini....

- A) Jalolobodgacha kengaytirib oldi
- B) shimolda Amudaryogacha kengaytirib oldi
- C) Qandahorgacha bo'lgan yerlargacha kengaytirib oldi
- D) janubiy Erongacha bo'lgan hududlargacha kengaytirib oldi

112. Qachon Abdurahmon inglizlar bilan bitim tuzdi?

- A) 1887-yilda
- B) 1890-yilda
- C) 1893-yilda
- D) 1896-yilda

113. 1901-yili Abdurahmon vafot etgandan keyin amirlik taxtiga.....

- A) o'g'li Habibullo o'tirdi
- B) nevarasi Omonulloxon o'tirdi
- C) ukasi Ahmadshoh o'tirdi
- D) akasi Ayubxon o'tirdi

114. Inglizlarning qaysi yilda Afg'oniston bilan tashqi savdo Buyuk Britaniya nazoratida bo'lmog'i, mamlakatda inglizlarning temiryo'l qurishiga rozilik berish, ingliz fuqarolarining Afg'onistonda erkin kirib-chiqishiga ruhsat berish talab qilingan bitimi imzolangan edi?

- A) 1903-yilda B) 1905-yilda
C) 1906-yilda D) 1907-yilda

115. Afg'onistonda "Yosh afg'onlar" ning qanday gazetasi nashr qilindi?

- A) Siroj ul-afg'oniya
B) Ittihodi Muhammadi
C) Hurriyat va birdamlik
D) Afg'on yoshlari

116. "Yosh afg'onlar" harakati tomonidan chiqarilgan gazetaning muharriri kim bo'lgan?

- A) Ahmad Zohir
B) Muhammad Tarziy
C) Muhammad Ayubxon
D) Omonulloxon

117. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiyada haydaladigan yerlarning necha foizi katta yer egalari va ruhoniylariga qarashli bo'lgan?

- A) 56 foizi B) 60 foizi C) 65 foizi D) 72 foizi

118. Qaysi yillarda Turkiyada mehnat unumdorligi kam bo'lganligi uchun kuchli ocharchilik oqibatida ko'plab odamlar qirilib ketdi?

- A) 1870-1872-yillarda B) 1873-1875-yillarda
C) 1874-1877-yillarda D) 1875-1878-yillarda

119. Sulton hukumati o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun chet eldan 1870-1874-yillarda qancha qarz oldi?

- A) 2 mlrd.dollardan ziyod
B) 3 mlrd.frankdan ortiq
C) 4 mlrd.markadan ziyod
D) 5 mlrd.funt sterlingdan ortiq

120. Qachon hukumat Turkiyani moliyaviy bankrot deb e'lon qilishga majbur bo'ldi?

- A) 1873-yilda B) 1874-yilda
C) 1875-yilda D) 1876-yilda

121. Turkiya hukumati XIX asr oxiri XX asr boshlarida qaysi davlat bilan yaqinlashdi?

- A) Buyuk Britaniya bilan
B) Germaniya bilan
C) Rossiya bilan
D) Fransiya bilan

122. Qachon Germaniya bo'lajak Bog'dod temir yo'l loyihasining Izmir-Anqara qismini qurishni qo'lga kiritdi?

- A) 1884-yilda B) 1886-yilda
C) 1888-yilda D) 1890-yilda

123. Turkiya 1875-yilda qarzlar uchun yiliga qancha miqdorda foiz to'lashi lozim edi?

- A) 380mln.frankka yaqin
B) 420 mln.frankdan ortiq
C) 520mln.frankka yaqin
D) 570 mln.frankdan ortiq

124. Turkiyadagi "Yangi usmonlilar harakati" ning qanday gazetasi nashr qilingan?

- A) Ibrat B) Bayroq
C) Yosh turklar D) Isyon

125. Qachon Turkiyada xalq qo'zg'oloni boshlandi?

- A) 1872-yilda B) 1874-yilda
C) 1876-yilda D) 1878-yilda

126. 1876-yilning 22-mayida Turkiyaning qaysi sultoni, Shayx ul-Islomning fatvosi bilan taxtdan tushirildi?

- A) Abdulaziz B) Abdulhamid II
C) Salim I D) Niyozbiy

127. Qachon Turkiyada konstitutsiya e'lon qilindi?

- A) 1876-yilning 22-mayida
B) 1876-yilning 23-dekabrda
C) 1877-yilning 17-iyunida
D) 1877-yilning 27-noyabrda

128. Turkiyada qaysi sulton davri "zulm davri" nomini oldi?

- A) Abdulaziz B) Mahmud V Rashod
C) Abdulhamid II D) Salim I

129. 1889-yilda Turkiyaning qaysi shahrida harbiy-medsina bilim yurti kursantlari yashirin "Birlik va taraqqiyot" tashkilotini tuzdilar?

- A) Anqarada B) Izmirda
C) Karosda D) Istambulda

130. Qachon sulton Ahmad II "Birlik va taraqqiyot" tashkiloti ustidan sud uyishtirdi?

- A) 1888-yilda B) 1897-yilda
C) 1885-yilda D) 1893-yilda

131. "Yosh turklar" 1902-yilda qaysi shaharda o'zlarining birinchi qurultoyini o'tkazdilar?

- A) Parijda B) Istambulda

C) Londonda D) Berlinda

132. Qaysi yillarda Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi?

- A) 1902-1903-yillarda B) 1904-1905-yillarda
C) 1905-1906-yillarda D) 1907-1908-yillarda

133. Qachon "Yosh turklar" dan bo'lgan qo'shin zobitlari rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi?

- A) 1905-yil 5-may kuni
B) 1905-yil 16-mart kuni
C) 1905-yil 3-iyul kuni
D) 1905-yil 22-noyabr kuni

134. 1908-yil 20-iyulda qaysi shaharda " Birlik va taraqqiyot" partiyasi tantanali bir vaziyatda konstitutsiya tiklanganligini e'lon qildi va sulton-dan bu masalada farmon berishni talab qildi?

- A) Monastirda B) Anqarada
C) Izmirda D) Parijda

135. XX asrning boshlarida Turkiyada ruhoniylarning qanday partiyasi mavjud edi?

- A) Ittihodi Muhammadi B) Ibrati Islomiya
C) Birlik tug'i D) Islomiya Turkiya

136. 1913-yil 13-aprel isyonidan keyin "Yosh turklar" ning arboblardan bir qismi qayerga qochib ketdilar?

- A) Anqara va Izmirga
B) Salonika va Adrionopolga
C) Adrionopol va Karasga
D) Izmir va Salonikiga

137. Turkiya sultoni Mahmud V Rashod qaysi yillarda davlatni boshqardi?

- A) 1890-1914-yillarda B) 1895-1910-yillarda
C) 1903-1916-yillarda D) 1909-1918-yillarda

138. Qachon Turkiyada davlat to'ntarilishi o'tkazildi?

- A) 1908-yilning 20-iyunida
B) 1909-yilning 5-mayida
C) 1911-yilning 16-avgustida
D) 1812-yilning 5- avgustida

139. Qachon "Yosh turklar" rahbarlaridan biri bo'lgan Anvarbey boshchiligida isyon ko'tarildi?

- A) 1908-yil fevralida B) 1909-yil mayida
C) 1911-yil iyunida D) 1913-yil yanvarida

140. Qachon Germaniya va Turkiya o'rtasida maxfiy suratda ittifoq shartnomasi imzolandi?

- A) 1909-yilning 10-mayida
B) 1911-yilning 12-martida
C) 1914-yilning 2-avgustida
D) 1815-yilning 26-noyabrda

141. Yevropacha "Yosh turklar" deb atalmish "Birlik va taraqqiyot" partiyasi qachon tuzildi?

- A) 1882-yilda B) 1884-yilda
C) 1886-yilda D) 1889-yilda

6-mavzu: XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afrika mamlakatlari

1. Afrikaning shimoliy qismida, sahroyi Kabirning janubiy chegarasiga qadar aholining ko'pchilik qismini kimlar tashkil etardi?

- A) negrlar B) arablar
C) afrikanestlar D) mulatlar

2. XIX asrning 70-yillariga qadar Afrikaning shimolida va shimoliy sharqida, yani arablar yashovchi hududlarda qanday tuzum hukm surardi?

- A) imperiya B) parlamentar
C) respublika D) mutlaq podsholik

3. XIX asr oxirida Misr va Sudan qaysi davlatning mustamlakasiga aylangan edi?

- A) Fransiyaning B) Italiyaning
C) Buyuk Britaniyaning D) Turkiyaning

4. Misrning qaysi tarixi Turkiya hukmronligidan ozod bo'lish va inglizlarning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash bayrog'i ostida o'tgan o'zgarishlar davri bo'ldi?

- A) XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi
B) XVIII asr oxiri XIX asr boshlaridagi
C) XIX asr o'rtalaridagi
D) XX asrning 20-yillaridagi

5. Quyidagi qaysi hududlar XIX asr oxirida Fransiyaning mustamlakalariga aylangan edi?

- A) Marokash va Liviya
B) Tunis, Jazoir va Marokash
C) Misr va Tripolitaniya
D) Jazoir, Liviya va Misr

6. Misr milliy-ozodlik harakatining rahbari kim edi?
 A) Jamoliddin al-Afg'oniyy B) Ahmad Arabibey
 C) Abdul Qodir D) Monelik
7. Qachon Hadiv (Misr hukmdori) yangi qonunga imzo chekishga majbur bo'ldi?
 A) 1880-yilning 10-mayida
 B) 1882-yilning 7-fevralida
 C) 1884-yilning 16-martida
 D) 1886-yilning 22-noyabrda
8. Qachon Jamoliddin al-Afg'oniyy "Xizb ul-Vatan" (Vatan partiyasi) partiyasini tuzdi?
 A) 1871-yilda B) 1872-yilda
 C) 1873-yilda D) 1874-yilda
9. Buyuk Britaniya 1882-yilda qayerni to'plardan o'qqa tutdi?
 A) Qohirani B) Xartumni
 C) Iskandariyani D) Sudanni
10. Misr qo'shini rahbarlaridan biri Ahmad Arabibey Qohirada oliy davlat organi –Muvaqqat Kengashni tuzdi va qancha kishilik qo'shin to'pladi?
 A) 40 ming B) 45 ming
 C) 50 ming D) 60 ming
11. Qachon Misr qo'shini Buyuk Britaniya qo'shinidan yengildi va Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylanib qoldi?
 A) 1881-yil mayda
 B) 1882-yil sentabrda
 C) 1881-yil avgustda
 D) 1882-yil dekabrda
12. Qayerda 1888-yilda Suvaysh kanalidan foydalanish bo'yicha Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya davlatlari konvensiya imzolashdi?
 A) Qohirada B) Xartumda
 C) Istambulda D) Parijda
13. "Vatan" partiyasining qanday gazetasi bor edi?
 A) Al-Liva (Bayroq) B) Yosh Misrliklar
 C) Al-Azhar D) Ozod Misr
14. Misr Majlisi vitse-prezidenti bo'lgan qaysi shaxs demokratik, milliy-ozodlik ruhidagi deputatlarni o'z atrofiga to'plab, majlis nomidan

- ingliz hukmronligiga qarshi hujjatni o'tkazishga erishdi?
 A) Ahmad Arabibey
 B) Abdul Qodir
 C) Saad Zaglul
 D) Jamoliddin al-Afg'oniyy
15. Qachon sudanliklarning yetakchisi Muhammad Ahmad xalqni Misr-Turk zulmiga hamda yevropaliklarga qarshi muqaddas urushga chaqirdi?
 A) 1876-yilda B) 1878-yilda
 C) 1881-yilda D) 1883-yilda
16. 1882-yilda kim Xartumda general-gubernator etib tayinlandi?
 A) Saad Zaglul
 B) Misrlik Abdul Qodir
 C) Al-Afg'oniyy
 D) Sudanlik Muhammad Ahmad
17. 1883-yili general Xiks boshliq ingliz qo'shini kimlar tomonidan qirib tashlandi?
 A) Abdul Qodir qo'shinlari tomonidan
 B) Sudan ansorlari tomonidan
 C) Muhammad Ahmad qo'shinlari tomonidan
 D) polkovnik Ahmad Arabibey qo'shinlari tomonidan
18. Qachon inglizlar Sudanga general Gordon boshchiligida harbiy qism yuborishdi?
 A) 1882-yilda B) 1883-yilda
 C) 1884-yilda D) 1885-yilda
19. 1885-yilda Sudanda
 A) mustaqil mahdiylar davlati tuzildi
 B) konstitutsiya qabul qilindi
 C) Misrlik Abdul Qodir general-gubernator etib tayinlandi
 D) ichki nizolar kuchaydi
20. Qaysi shahar Sudan davlatining poytaxti etib belgilandi?
 A) Xartum B) Qohira
 C) Addis Abeba D) Omdurman
21. Qancha kishilik qo'shin Sudan davlatining tayanchi bo'lib qoldi?
 A) 200 ming B) 300 ming
 C) 400 ming D) 500 ming

22. Qachon Efiopia va Sudan o'rtasida urush harakatlari boshlandi?
 A) 1883-yilda B) 1874-yilda
 C) 1885-yilda D) 1886-yilda
23. 1887-yilda Adua yonida ... qo'shinlari Italiya qo'shinlarini tor-mor qildi.
 A) Misr B) Sudan C) Jazoir D) Efiopia
24. Nima uchun Efiopia hukmdori Yo'xonni va Sudan hukmdori Abdulloh o'rtasidagi zarur bitim imzolanmay qolindi?
 A) Efiopiya qo'shinlarining Omdurman shahriga hujumi
 B) Abdullaohni Yo'xoni islomga o'tishini talab qilganligi
 C) Sudanda boshlangan ichki nizolar
 D) Buyuk Britaniyaning ikki davlat o'rtasiga nizo solishi
25. Qachon Efiopiya imperatori Menelik sudanliklar foydasini ko'zlovchi bitimni imzolashga majbur bo'ldi?
 A) 1884-yilda B) 1886-yilda
 C) 1888-yilda D) 1889-yilda
26. Qachon Buyuk Britaniya-Misr birlashgan qo'shinlari Sudan mahhdiylari qo'shini ustidan g'alaba qozondi va Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi?
 A) 1887-yil mayda B) 1888-yil fevralda
 C) 1889-yil avgustda D) 1890-yil sentabrda
27. 1883-yil Tunisda....
 A) konstitutsiya qabul qilindi
 B) Fransiya hukmronligi o'rnatildi
 C) soliq olish to'g'risidagi qonun qabul qilindi
 D) yosh tunisliklar partiyasi tuzildi
28. XIX asr oxirida Jazoir qancha fransuz yashar edi?
 A) 300 ming B) 400 ming
 C) 500 ming D) 600 ming
29. Qaysi yillarda Jazoir mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi?
 A) 1900-1903-yillarda
 B) 1903-1905-yillarda
 C) 1905-1906-yillarda
 D) 1907-1908-yillarda
30. Qachon "Yosh Jazoir" partiyasi tuzildi?
 A) 1907-yilda B) 1909-yilda
 C) 1911-yilda D) 1912-yilda
31. 1900-yilda Italiya Fransiyaning Marokashga nisbatan "huquqlarini" tan oldi va buning evaziga Italiya....
 A) Liviyaga daxldor "huquq" ga ega bo'ldi
 B) Sudanga daxldor "huquq" ga ega bo'ldi
 C) Suvaysh kanalidan foydalanish huquqiga ega bo'ldi
 D) Efiopiyaga daxldor "huquq" ga ega bo'ldi
32. Qachon Liviya Italiya mulki deb e'lon qilindi?
 A) 1911-yil 28-sentabrda
 B) 1911-yil 5-noyabrda
 C) 1912-yil 10-yanvarda
 D) 1912-yil 26-martda
33. Janubiy Afrikani mustamlaka qilishda qaysi davlat asosiy rol o'ynadi?
 A) Fransiya B) Germaniya
 C) Buyuk Britaniya D) AQSH
34. XIX asrning oxirgi choragida Afrikaga yevropaliklarning "oqib kelishlarini" yanada tezlashishiga nima sabab bo'ldi?
 A) Janubdagi qazilma boyliklariga boy yerlarda 70-yillarda olmos va 80-yillarda oltin konlarining topilishi
 B) Shimoldagi yerlarda neft konlari va oltin konlarining topilishi
 C) Bu yerda arzon ishchi kuchining ko'pligi
 D) Markaziy Afrikadan olmos va oltin konlarining topilishi
35. Qachon Buyuk Britaniya Transvaalni bosib oldi?
 A) 1884-yilda B) 1885-yilda
 C) 1886-yilda D) 1887-yilda
36. XIX asr oxiri XX asr boshlarida qaysi hududlar Fransiya, Gollandiya va Buyuk Britaniya o'rtasida raqobat maydoniga aylandi?
 A) G'arbiy Sudan, Senegal va Nil daryosi havzasi
 B) Janubiy Afrika va Burlar Respublikasi
 C) Transvaal, Senegal va Misr hududlari
 D) Efiopiya, Tunis va Jazoir hududlari
37. Qachon Fransiya G'arbiy Sudanni bosib oldi?
 A) 1886-yilda B) 1888-yilda

- C) 1890-yilda D) 1892-yilda
38. G'arbiy sudanliklarning ozodlik kurashiga kim boshchilik qilgan?
 A) Samori Ture B) Muhammad Ahmad
 C) Abdul Qodir D) Ahmad Orabibey
39. Qachon Chad ko'li atrofi bo'ysindirildi?
 A) 1898-yilda B) 1900-yilda
 C) 1902-yilda D) 1904-yilda
40. 1904-yilda Gvineya ko'rfazi bo'ylari qaysi davlat tomonidan tobe etildi?
 A) Buyuk Britaniya B) AQSH
 C) Germaniya D) Fransiya
41. 1883-yilda Kongo havzasidagi yerlar qaysi davlat mustamlakasi deb e'lon qilindi?
 A) Rossiya B) Italiya
 C) Belgiya D) Buyuk Britaniya
42. Yevropaliklar Nil daryosi boshlanish havzalarini ilmiy o'rganish bahonasi bilan qaysi mamlakatni "ochishdi"?
 A) Kongo B) Gvineya
 C) Senegal D) Buganda
43. Qaysi davlat qul savdosiga qarshi kurash bahonasi bilan nemislar,fransuzlar va inglizlar tomonidan bo'lib olinadi?
 A) Buganda B) Senegal
